

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**QADIROVA MAQSUDA RAVSHANBEKOVNAning**

5110800 "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi  
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY  
ISHI**

MAVZU: "SOVG'A BUYUMLARINI BADIY BEZASH  
TEXNOLOGIYASI"

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi Ibadullayeva  
Nigora Egamberganovna



Urganch 2019 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

**“SOVG‘A BUYUMLARINI BADIIV BEZASH  
TEXNOLOGIYASI”**

Bajaruvchi:



**QADIROVA MAQSUDA  
RAVSHANBEKOVNA**

Rahbar:

**KATTA O'QITUVCHI IBADULLAYEVA NIGORA  
EGAMBERGANOVNA**

Urganch shahri-2019-yil

# URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

## PEDAGOGIKA FAKULTETI

### TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

#### BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Qadirova Maqsuda Ravshanbekovnaga Universitet rektorining «125»-sonli buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun "Sovg'a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi" mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan katta o'qituvchi Ibadullayeva N.E bitiruv-malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:

a) mavzu mazmunini ochib beruvchi ko'rgazmali vositalar;

b) mavzuning elektron shaklda tayyorlangan matni

- Kirish

-1 bob. Naqqoshlik san'atida yog'ochdan yasalgan sovg'a buyumlarni bezash bosqichlari va qonuniyatlari

-2 bob. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga O'zbekiston naqqoshlik maktabi va uning namoyondalarining ijodini o'rgatishning nazariy asoslari.

- Xulosa

- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar: Bitiruv malakaviy ish ikki qism: nazariy va amaliy qismlardan iborat. Nazariy qismning tarkibiy tuzilmasi yuqorida ko'rsatilgan bo'lib, matn elektron variantda 12-13 ming so'z atrofida bo'ladi.

*Dastlabki bosqichda quyidagi adabiyotlardan foydalanish tavsiya qilinadi:*

1. Ahmedov M. B. Yog'och o'yimakorligi. –T: Iqtisod-moliya, 2007.

2. Боситхонов З. Хандасий нақш (гирих)ларнинг ечимлари. –Т.:«Очик Жамият Институту Кўмак Жамфармасининг Ўзбек Ваколатхонаси», 2002

3. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir. T., 2006.

4. G'ulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T: «Bilim», 2004.

5. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. – T: Iqtisod – molya, 2007.

*Ishni bajarish jarayonida foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati to'ldirib boriladi.*

5. Bitiruv malakaviy ishga mavzu mazmunini ochib beruvchi ko'rgazmali vositalarning eskizlari va boshqa shakllardagi materiallar ilova qilinadi.

### Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlash.	8.10.2018
2	Bitiruv malakaviy ishi topshirig`i mazmuni va hajmini aniqlash.	15.10.2018
3	Maxsus adabiyotlarni o`rganish, loyiha bo`yicha psixologik-pedagogik, metodik va amaliy materiallari yig`ilishi.	5.11.2018 yilgacha
4	Loyiha bo`yicha tajriba mazmuni, hajmi va tartibini aniqlashtirish.	19.11.2018
5	Tajriba ish (o`qish)larni tashkil qilish va o`tkazish sifati (maktab, kollej ...).	10.12.2018.
6	Tajriba natijalarini umumlashtirish va taxlil qilish.	14.01.2019
7	Bitiruv malakaviy ishi loyihasining dastlabki eskizlarini tasdiqlash.	11.02.2019
8	Eskizlarni to`la tasdiqlash va bitiruv malakaviy ishi loyixasi nazariy va amaliy qismlari mazmunini tasdiqlash.	11.03.2019
9	Bitiruv malakaviy ishi loyixasini bajarishning borishi nazorati va uning nazariy hamda amaliy qismlarining kafedradagi muhokamasi.	15.04.2019
10	Rahbar tomonidan tugallangan loyihani ko`rikdan o`tkazish.	6.05.2019
11	Tugallangan ishni bitiruv malakaviy ishi loyihasi rahbar xulosasi va uni himoyaga tavsiyasi bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish.	27.05.2019

Bitiruv malakaviy ish rahbari:  - katta o`qituvchi Ibadullayeva N.E  
 Bajaruvchi talaba:  Qadirova Maqsuda Ravshanbekovna  
 2018 yil « 08 » oktabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2018 yil tasdiqlandi  
 (« 4 »- sonli bayonnoma)

**Kafedra mudiri:**  **Ibadullayeva N.E**

### Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

<b>№</b>	<b>Baholanadigan bo'limlar</b>	<b>Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida</b>
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	5
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	25
3	Amaliy qism mazmunining tanlangan mavzuga mosligi. Ishning mahoratli bajarilishi	20
4	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	5
5	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
6	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
7	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
8	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
9	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat yo'nalishining bitiruvchisi Qadirova Maqsuda Ravshanbekovnaning "Sovg'a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAKning «24» 06 2019 yildagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	5	4
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	25	20
3	Amaliy qism mazmunining tanlangan mavzuga mosligi. Ishning mahoratli bajarilishi	20	16
4	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	5	4
5	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	8
6	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	8
7	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	4
8	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	8
9	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	8
Jami:		100	80

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. Qadirova Maqsuda Ravshanbekovnaning "Sovg'a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi" mavzusida bajargan bitiruv-malakaviy ish uchun 80 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilansin va «axluu» deb baholansin.

DAK raisi: \_\_\_\_\_

A'zolari: \_\_\_\_\_

2019 yil «24» 06

Urganch davlat universiteti  
Pedagogika fakulteti

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrası

Bitiruv malakaviy ish TC-15 sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Qadirova Maqsuda Ravshanbekovna

Bitiruv-malakaviy ishning mavzusi: “Sovg‘a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi”

Ilmiy rahbar (maslahatchi)ning ismi-sharifi: katta o‘qituvchi Ibadullayeva N.E

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2019 yil «24» 06 da o‘tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qilindi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Xiva pedagogika kolleji tasviriy san’at fani o‘qituvchisi Matnazarov O tayinlandi.


Kafedra mudiri:



Ibadullayeva N.E

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo‘yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:



Yarmetov J.R

Urganch davlat universiteti

Pedagogika fakulteti

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrası  
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavriat yo`nalishi

“TASDIQLAYMAN”

Pedagogika fakulteti dekani

Yarmetov J.R.

“ ” 2018 y.

## BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA TOPSHIRIQ

1. Talaba Qadirova Maqsuda Ravshanbekovna

2. Ishning mavzusi: “Sovg’a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi”  
« 02 » 11 2018 yil universitet rektorining 125-sonli buyrug`i  
bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ 27 ” 05 2019 y.

3. Mavzu bo`yicha dastlabki ma`lumotlar beruvchi adabiyotlar ro`yxati

- a) Ahmedov M. B. *Yog`och o`ymakorligi*. –T: Iqtisod-moliya, 2007.
  - b) Боситхонов З. *Хандасий нақш (гурих)ларнинг ечимлари*. –Т.: «Очиқ Жамият Институту Кўмак Жамгармасининг Ўзбек Ваколатхонаси», 2002
  - c) Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. *Rangtasvir*. T., 2006.
  - d) G`ulomov K. *Ashyolarga badiiy ishlov berish*. –T: «Bilim», 2004.
  - e) 5.Xolmatov B.Q. *Naqqoshlik*. – T: Iqtisod – molya, 2007.
- Ishni bajarish jarayonida foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati to`ldirib boriladi.

### 4. Ishning maqsadi:

- Naqqoshlik san`atida ijod qilayotgan zamondosh naqqoshlarimizning ijodi bilan yaqindan tanishish.
- Amaliy san`atga oid bo`lgan barcha nazariy bilimlarga ega bo`lib, shu sohada shuningdek amaliy san`atni ta`lim jarayonida amalda qo`llashni o`rganish.  
Umumiy o`rta ta`lim maktablarida sovg`a buyumlarini badiiy bezash jarayonida o`quvchilarning ijodiy tasavvurini oshirish imkoniyatlarini o`rganib chiqish.
- Sovg`a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasini o`rganib chiqish
- Sovg`a buyumlarini badiiy bezash uchun kompozitsiya tuzish va uni amalda bajarish.

### 5. Ko`rgazmali materiallar ro`yxati:





- A) “Sovg`a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi” mavzuli elektron versiya;
- B) Mavzu mazmunini ochib beruvchi ko`rgazmali vositalar;
- C) “Sovg`a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi” mavzuli kompozitsiya




**6. Maslahatchilar:**

Ro'zmetov Q.Sh

Tog'onov R.O

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
Nazariy qism	Ro'zmetov Q.Sh		
Amaliy qism	Tog'onov R.O		

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Xiva pedagogika kolleji tasviriy san'at fani o'qituvchisi Matnazarov O

7. Ilmiy rahbar:  katta o'qituvchi Ibadullayeva N.E

BMI bajaruvchi talaba:  Qadirova M.R

Kafedra mudiri:  Ibadullayeva N.E

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I-bob. Naqqoshlik san'atida yog'ochdan yasalgan sovg'a buyumlarni bezash bosqichlari va qonuniyatlari</b>	
1.1-§ Yog'ochdan yasalgan sovg'a buyumlarining turlari.....	13
1.2-§ Yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llaniladigan naqsh turlari va naqsh kompozitsiyalarning tuzilishi.....	17
1.3-§ Yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezash uchun qo'llaniladigan naqsh kompozitsiyalariga rang tanlash, ranglash, pardoqlash bosqichlari. Bitiruv-malakaviy ishning amaliy qismini bajarish jarayoni.....	26
<b>II-bob. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga O'zbekiston naqqoshlik maktabi va uning namoyondalarining ijodini o'rgatishning nazariy asoslari.</b>	
2.1-§ Naqqoshlik san'atining rivojlanish bosqichlari va maishiy hayotimizda tutgan o'rni.....	31
2.2-§ Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini xalq amaliy bezak san'atidan amaliy bilimlarini oshirish omillari.....	40
2.3-§ O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni va uning natijalarini tahlili.....	48
<b>Xulosa va metodik tavsiyalar</b> .....	65
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	67
<b>Ilovalar</b>	

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi:** Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetini mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta‘lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Yangi sharoitlardan kelib chiqib, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi[2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qaroriga muvofiq, ta‘lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, ta‘limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta‘lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta‘lim muassasalarining qulayligini ta‘minlash, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi Davlat qonunida ta‘limning ravnaqi uning insonparvarligi, ta‘lim-tarbiya tizimining uzluksizligi, izchilligi, davlat ta‘lim tizimining ilmiyligi va dunyoviyligi, ta‘limda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ustuvorligi, davlat ta‘lim standartlari doirasida hammaning ta‘lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilishi bilan belgilanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta‘limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari ta‘limning ijtimoiylashuvi ta‘lim oluvchilarda estetik boy

dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga qaratilganligi muhim ahamiyatga egadir. [1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi № PF-4947-sonli Farmoniga muvofiq, barcha soha va tarmoqlar qatori madaniyat va san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari ravnaqini yangi bosqichga ko'tarishni eng asosiy vazifalarimizdan biri deb qaraldi.[2]

«Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq, deb yozgan edi birinchi Prezidentimiz I.Karimov- ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashni o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz». Mazkur milliy tafakkurdagi ijobiy ustuvor ta'sirlar zamonaviy san'atimizning ijobiy izlanishlar doirasini kengaytiradi va xususan badiiy ta'lim sohasining rivojlanishini yanada jadallashtiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin xalq san'ati rivoji yangicha mazmun kasb etdi. Milliy merosimizni, an'anaviy milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, hunarmandlarga g'amxo'rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy bezak san'ati rivojida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari hamda hukumat qarorlarining mohiyati kattadir. 1997 yil 24 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan «Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari to'g'risida»gi farmoni joriy etildi. Bu farmonga muvofiq xalq san'atini yoshlarga o'rgatish eng muhim vazifalardan deb hisoblanadi. [3] Chunonchi, xalq amaliy san'ati eng ommaviy, eng xalqchil, eng hayotiy ijod ifodasidir. U asrlar mobaynida shu tarzda xalq ijodi sifatida shakllanib, taraqqiy etgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar

tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Ma'lumki, har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki bilimlarni o'rgatish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Zero, ilm bobidagi izlanish insonni ma'naviy, ahloqiy – estetik kamolot sari yetaklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 fevraldagi 77 sonli qaroridan so'ng respublikamizning barcha viloyatlarida tasviriy, amaliy san'at va xalq hunarmandchiligiga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari barpo etildi.

Bu o'z o'rnida o'zbek xalq amaliy bezak san'atiga jiddiy e'tibor berishni, ularni har tomonlama o'rganish, rivojlantirish, yosh avlodlarga san'atning sir-asrorlarini o'zlashtirish, ularning estetik didini o'stirish hamda boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimiz, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat, Vatanga muhabbat, milliy istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashni talab etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning sog'lomlashuvi jamiyat a'zolarining ijtimoiy tafakkurida ijobiy o'zgarishlarni sodir etdi. Bu hol esa ma'naviy qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirdi. Ushbu mavzu orqali o'quvchilarning amaliy san'atga bo'lgan qiziqishini oshirishi, ularning tasavvuri va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi bilan ishning asosiy maqsadi sifatida uni o'rganish va ishlab chiqish tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

### **Tadqiqotning maqsadi:**

- Naqqoshlik san'atida ijod qilayotgan zamondosh naqqoshlarimizning ijodi bilan yaqindan tanishish.
- Amaliy san'atga oid bo'lgan barcha nazariy bilimlarga ega bo'lib, shu sohada shuningdek amaliy san'atni ta'lim jarayonida amalda qo'llashni o'rganish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sovg'a buyumlarini badiiy bezash jarayonida o'quvchilarning ijodiy tasavvurini oshirish imkoniyatlarini o'rganib chiqish.

- Sovg'a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasini o'rganib chiqish
- Sovg'a buyumlarini badiiy bezash uchun kompozitsiya tuzish va uni amalda bajarish.

## **Tadqiqotning vazifalari:**

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqilgan holda ushbu bitiruv malakaviy ishi o'z oldiga quyidagi vazifalarni belgiladi:

1. O'quvchilarga tabiatni kuzatish, gullar, meva va sabzavotlarni turli shaklda stilizatsiyalash va tasvirlash, ularni ilmiy asosda idrok etishga o'rgatish;
2. O'quvchilarni badiiy didini, estetik tushunchasini, materialistik dunyoqarashini, go'zallik olamini va ijodiy iste'dodini, ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalash;
3. Naqsh elementlarini chiza bilish, ularni ijodkorlik asosida bajarish bo'yicha malaka-ko'nikmalar hosil qilish;
4. Amaliy san'atning naqqoshlik san'ati asarlarini ko'ra bilishni, idrok etishni, tushunishni o'rgatish;

**Tadqiqotning ob'ekti:** Sovg'a buyumlari lavh va turli o'lchamdagi qutichalarni badiiy bezash.

**Tadqiqotning predmeti:** Sovg'a buyumlari lavh va turli o'lchamdagi qutichalarni badiiy bezash uslubi va metodikasi.

## **Tadqiqot metodlari:**

- tadqiqot mavzusiga doir pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;

- amaliyotda o'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirishga oid dastur, o'quv va metodik qo'llanmalarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etish;

- maxsus ishlanmalar asosida bajarilgan ishlarni pedagogik tajribadan o'tkazish;

- tajriba-sinov ishlarini olib borishda zamonaviy pedagogik texnologiya va interfaol metodlardan foydalanish;

-tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik jihatdan qayta ishlash va umumlashtirish.

## **Tadqiqotning metodologik asoslari:**

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning ta'lim tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan nutqlari, unda bayon etilgan yondashuvlari, tadqiqot muammosiga oid ilmiy-metodik pedagogik adabiyotlarga tayanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki,** tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga amaliy san'atdan sovg'a buyumlarini badiiy bezash jarayonida o'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish, ijodiy tasavvurini oshirish, tasviriy va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni samarali kechadi, agarda:

- o'quvchilarning yoshiga, imkoniyatlariga, qiziqishlariga mos ta'lim mazmuni, ijodiy topshiriqlar tizimi ishlab chiqilsa;

- xalq amaliy bezak san'atidan tarixiy an'analar, zamonaviy yondashuvlar va ta'limning interfaol usullaridan samarali foydalanilsa;

- ta'lim mazmuni ilmiy asoslangan, uning metodikasi amaliyotda sinab ko'rilgan holda joriy etilsa;

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi ijodkorligi, tashabbuskorligi, mustaqilligi, faolligi ta'minlansa;

- o'quvchilarda amaliy san'at va ijodiy faoliyatga yo'naltirish bo'yicha beriladigan bilim, hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar ma'lum tizim, izchillik va uzviylikda berib borilsa.

Tasviriy san'at darslarida naqqoshlikni, shuningdek, sovg'a buyumlarini ketma ketlik asosida chizishni o'rgata olsak, o'quvchilar qalbida milliy qadriyatlarimizga muhabbat uyg'otgan va xalq amaliy bezak san'atiga qiziqтира olgan bo'lamiz. Buning natijasida esa o'quvchilar ongida nafosat tarbiyasini shakllantiribgina qolmay, tasavvur olamini kengayishiga ham ko'maklashgan bo'lamiz.

### **Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:**

1. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`quvchilarda ijodiy faoliyat ko`nikmalarini shakllantirish va ularni ijodkorlikka yo`naltirish, xalq amaliy bezak san`atini o`rgatishning zaruriyati.

2. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`quvchilarda amaliy san`at bo`yicha ijodiy faoliyat ko`nikmalarini shakllantirish va ularni ijodkorlikka yo`naltirishning samaradorligi.

3. Sovg`a buyumlarini kompozitsiyasi ustida ishlash va ijodkorlik asosida bajarish bo`yicha malaka-ko`nikmalar hosil qilib va ularni mustaqil ishlash uchun tavsiyalar berish;

4. Sovg`a buyumlarini badiiy tahlil qilib va bosqichma bosqich ishlab uslubiy ko`rsatmalar berish.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Tasviriy va amaliy san`at mashg`ulotlarida o`quvchilarni amaliy san`atga qiziqtirishning nazariy va amaliy asoslari, ular asosida bu jarayonni ta`minlovchi pedagogik tizim hamda unga kiruvchi amaliy topshiriqlar tizimi, ularni amalga oshirishning ilmiy asoslangan metodikasi, o`quvchilarda ijodiy faoliyat ko`nikmalarini shakllantirishga yo`naltirilgan, faoliyat samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. O`quvchilarning amaliy san`at, xususan naqqoshlik bo`yicha ijodiy faoliyatini shakllantirishning ilmiy asoslangan va tajribada sinab ko`rilgan mazmuni (pedagogik tizim va tasviriy faoliyatning boshqa turlari bo`yicha) va metodikasi, o`quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish bo`yicha nazariy va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi, tasviriy savodxonlikning komponentlari, savodxonlik darajasini aniqlash mezonlari yaratildi.

### **Tadqiqotning nazariy ahamiyati:**



1. Tasviriy va amaliy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarni amaliy san'atga qiziqtirishning nazariy va amaliy asoslari, o'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish, ijodiy tasavvurini oshirish, tasviriy va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga oid ilmiy manbalar, jumladan xorijiy manbaalarning tahlili asosida tegishli ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

2. O'quvchilarning ijodiy tasavvurini oshirish, amaliy san'at bo'yicha ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim, bu tizimning asosiy komponentlari o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar mazmuni, ularni tashkil etish metodikasi ishlab chiqildi.

### **Tadqiqotning amaliy ahamiyati:**

O'quvchilarga sovg'a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasini o'rgatish orqali amaliy va naqqoshlik san'atiga bo'lgan qiziqishni uyg'otish.

Bitiruv malakaviy ishning o'z oldiga qo'ygan vazifalaridan kelib chiqqan muammoning mohiyati va uning natijasida ishlab chiqilgan metodik tavsiya hamda boshqa ishlanmalar umumta'lim maktablari pedagoglari, jumladan, tasviriy san'at to'garak rahbarlariga o'quvchilarda amaliy san'at bo'yicha ijodiy faoliyatni shakllantirish jarayonida qo'l keladi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda tayyorlangan metodik tavsiyalar umumta'lim maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarining faoliyatini yanada takomillashtirishga, tasviriy san'at mashg'ulotlarida naqqoshlik san'ati asosida o'quvchilarning ijodkorligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Agarda biz tasviriy san'at darslarida naqqoshlik san'atini bosqichma-bosqich chizishni o'rgata olsak, o'quvchilar qalbida xalqimizning milliy qadriyatlari va san'atiga muhabbat uyg'otgan va tasviriy san'atga qiziqтира olgan bo'lamiz.

**Ishning sinovdan o'tishi:** tajriba-sinov o'qishlari uchun tayyorlangan topshiriq variantlarining namunalari Urganch shahridagi 6-son umumiy o'rta ta'lim maktabida tasviriy san'at mashg'ulotlari sinab ko'rildi va ijobiy natijalar olindi.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo'yicha bitta ilmiy-metodik maqola (mualliflikda) "Yog'ochdan yasalgan buyumlarga moslab naqsh kompozitsiyalarini tuzish bosqichlari va qonuniyatlari" mavzusida Zamonaviy fan va ta'lim to'plamida nashr qilindi. (Toshkent-2019 yil 1-son)

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.**

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Ishning hajmi 70 sahifani tashkil etadi. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, adabiyotlar tahlili va ishning maqsad va vazifalari ko'rsatilgan.

**Birinchi bob** –"Naqqoshlik san'atida yog'ochdan yasalgan sovg'a buyumlarni bezash bosqichlari va qonuniyatlari" deb nomlangan bo'lib, bu bobda Yog'ochdan yasalgan sovg'a buyumlarining turlari, yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llaniladigan naqsh turlari va naqsh kompozitsiyalarning tuzilishi va yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezash uchun qo'llaniladigan naqsh kompozitsiyalariga rang tanlash, ranglash, pardoqlash bosqichlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, bitiruv-malakaviy ishning amaliy qismini bajarish jarayoni to'liq bayon etilgan.

**Ikkinchi bob**–"Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga O'zbekiston naqqoshlik maktabi va uning namoyondalarining ijodini o'rgatishning nazariy asoslari" deb nomlanib, bu bobda naqqoshlik san'atining rivojlanish bosqichlari va maishiy hayotimizda tutgan o'rni, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini xalq amaliy bezak san'atidan amaliy bilimlarini oshirish omillari va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni va uning natijalarini tahlili qilish masalalariga qaratilgan.

Xulosada barcha qilingan ishlarning natijalari ko'rib chiqildi. Ilovada 10 tadan ortiq illyustratsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirildi (43 ta).

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida bir qancha adabiyotlar va manbalardan foydalandim. Jumladan:

I. Azimovning O`zbekiston naqshu nigorlari kitobida naqsh san`atining shakllinish tarixi, uning me`morchilikda tutgan o`rni va unda naqqoshlik san`atining rivojlanish bosqichlari, hozirgi kuni haqidagi ma`lumotlar yoritilgan bo`lib, shu bilan birga O`zbekiston hududida joylashgan qadimiy shaharlardagi me`morchilik obidalariga ishlangan naqshu nigorlardan ajoyib namunalar berilgan.[11]

Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. Ushbu o`quv qo`llanmasi maktab tasviriy san`at to`garaklariga va qadim zamonlardan beri O`zbekistonda keng qo`llanilib kelingan xalq san`atining ajoyib turlaridan biri bo`lgan naqqoshlik san`ati bilan qiziquvchilarga mo`ljallangan. Qo`llanmada naqqoshlarning ko`p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Mashhur naqqoshlar san`atlari va ta`lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan ushbu qo`llanmada D. Hakimov, T.To`xtaxo`jaev tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalaridan foydalanilgan. Shuningdek, ba`zi mashqlarga namuna sifatida kiritilgan tasviriy materiallar naqqoshlar H.Qosimxo`jaev, S. Norqo`ziev, Yo.Raufov va boshqalarning arxivlaridan olingan. [12]

Bulatov S.S.O`zbek halq amaliy bezak san`ati. Mazkur o`quv qo`llanmasi maktab tasviriy san`at to`garaklariga va qadim zamonlardan beri O`zbekistonda keng qo`llanilib kelingan xalq san`atining ajoyib turlaridan biri bo`lgan xalq amaliy bezak san`atining barcha turlariga qiziquvchilar uchun mo`ljallangan. Unda naqqoshlarning ko`p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan. Ushbu qo`llanmada mashhur naqqosh va ustalar Usta Shirin Murodov, D.Hakimov, T.To`xtaxo`jaev, Tohirjon Usmonovlar tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalari va ta`lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan. Qo`llanmaning nazariy qismini ishlashda san`atshunoslikka oid e`lon qilingan materiallardan ham keng foydalanilgan. O`quv qo`llanma xalq ijodiyotining ko`pgina havaskorlariga xalq amaliy bezak san`atining sirlarini anglashga va boy tajribalari bilan tanishishga yordam beradi. [17]

S.S.Bulatov va I.Dadashevlarning Naqsh alifbosi o`quv-metodik qo`llanmasi

maktab tasviriy san`at to`garaklariga va naqqoshlik san`atiga qiziquvchilar uchun mo`ljallangan. Unda zamonaviy naqqoshlik san`atida qo`llanilayotgan yangi uslubdagi naqsh elementlar, ularni chizish metodikasi va nazariyasi yoritilgan. O`quv-metodik qo`llanma zamonaviy naqqoshlar tomonidan yaratilgan naqsh elementlari, naqsh kompozitsiyalari va ta`lim-tarbiyaga oid tajribalari asosida yaratilgan.[14]

Mirzaaxmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish. Ushbu o`quv qo`llanmasi maktab tasviriy san`at to`garaklariga va qadim zamonlardan beri O`zbekistonda keng qo`llanilib kelingan xalq amaliy bezak san`atining ajoyib turlaridan naqqoshlik, ganchkorlik, naqqoshlik san`atlari bilan qiziquvchilarga mo`ljallangan.

Qo`llanmada ham naqqoshlarning ko`p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Mashhur naqqoshlar san`atlari va ta`lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan ushbu qo`llanmada D. Hakimov, T. To`xtaxo`jaev tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalaridan foydalanilgan.[26]

Shuningdek, ba`zi mashqlarga namuna sifatida kiritilgan tasviriy materiallar naqqoshlar H.Qosimxo`jaev, S.Norqo`ziyev, Yo.Raufov va boshqalarning arxivlaridan olingan.

Rempel,L.I.Архитектурный орнамент Узбекистана. Ushbu kitob qadim zamonlardan beri O`zbekiston naqqoshlik maktabida keng qo`llanilib kelingan xalq san`atining ajoyib turlaridan bo`lgan naqqoshlik, ganchkorlik va kulolchilik san`ati bilan qiziquvchilarga mo`ljallangan. [35]

Kitobda o`zbek me`morchilikning ko`p asrlik tajribalarini sistema lashtirishga harakat qilingan. Shuningdek,uning nazariy qismini ishlashda san`atshunoslikka oid materiallar ham yoritilgan.

Qosimov. Q. Naqqoshlik. Mazkur o`quv-metodik qo`llanma maktab tasviriy san`at to`garaklariga va qadimdan O`zbekistonda keng qo`llanilib kelingan

xalq san`atining ajoyib turlaridan biri bo`lgan naqqoshlik san`atiga qiziquvchilar uchun mo`ljallangan. Unda mashhur naqqoshlarimizning ko`p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Ushbu metodik-qo`llanmada mashhur naqqosh D.Hakimov, T.To`xtaxo`jaev, Tohirjon Usmonovlar tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalari va ta`lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan.

O`quv qo`llanma xalq ijodiyotining ko`pgina havaskorlariga naqqoshlik san`atining sirlarini anglashga va boy tajribalari bilan tanishishga yordam beradi.

Shuningdek, ba`zi kiritilgan tasviriy materiallar naqqoshlar H. Qosimxo`jaev, S.Norqo`ziev, Yo. Raufov va boshqalarning ijodiy ishlaridan olingan. [40]

Egamov.H. Bo`yoqlar bilan ishlash. Mazkur qo`llanmada tasviriy san`atda rangshunoslik, ranglarning turlari, ularning qo`llanilish sohalari kabi materiallar keng yoritilgan. Ushbu metodik qo`llanma maktab tasviriy san`at to`garaklariga va xalq san`atining ajoyib turlaridan biri bo`lgan naqqoshlik san`atiga qiziquvchilar uchun ham mo`ljallangan.[22]

## **I-bob. Naqqoshlik san`atida yog`ochdan yasalgan buyumlarni bezash bosqichlari va qonuniyatlari**

### **1.1-§ Yog`ochdan yasalgan sovg`a buyumlarining turlari**

Asrlar davomida rivojlanib kelayotgan naqqoshlik san`atida bezatilib keliniyotgan buyumlarning xalq orasida ko`plab tarqalishi ishlab chiqariladigan mahsulotning tuzilishi jihatidan qulayligiga va tannarxiga bogliqdir.

O`yma buyumlarni xalqimiz bemalol olish uchun ularning tan narxi arzon sifati ham yaxshi bo`lishi kerak .

Shunday shartlarni har bir naqqosh va o`ymakor usta yaxshi bilishi lozim. Bu esa ishni to`g`ri tashkil qilishni naqqoshlikda bezatilgan buyumlarning Yangi-yangi nushalarini yaratishni taqozo etadi.

Yog'ochdan yasalgan buyumlar yasalishi va ishlatilishiga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Stol ustiga qo'yiladigan ramkalar, sandiqlar, kvadrat shaklidagi qutichalar, aylana shaklidagi mayda buyumlar, xontaxtalar 3-4-6-8 qirrali kursichalar, laganchalar, shirma va panjaralarni misol qilib olishimiz mumkin.

Ramkalar yog'ochdan yasaliib turli maqsadlarda ishlatiladi. Ya'ni moybo'yoq bilan ishlangan tasviriy san'at asarlari portretlarning o'lchamlariga moslab yasaladi. Bunday ramkalarga odatda bir xil bo'yoq yoki lak surtib qo'yiladi. suratga olingan portretlar va yig'ma rasmlar uchun guash buyog'i bilan naqshlangan ramkachalar ishlatiladi. Naqshlangan ramkalar esa ulug' odamlarning rasmlari va alohida portretlarning chetini bezatish uchun ishlatiladi.

Ramkalar 18x30,30x40,40x50 kabi standart o'lchamlarga bo'linadi. Ayrim vaqtda esa rasmlarning o'lchamiga ko'ra ishlatilishi ham mumkin.

Ramkalarining kishilar hayotidagi roli juda katta. Chunki har bir xonadonga kirsangiz uyning to'rida ya'ni yuqori qismida ramkaga olingan portret yoki chiroyli rasm osig'lik turganini ko'ramiz. Bir xil bo'yoq bilan ishlanadigan ramkalar odamga yumshoq yog'ochdan (arg'uvon yoki qaragaydan) yasaladi. Guash bo'yog'i bilan bezatiladigan ramkalar quruq qaragay va arg'uvon yog'ochidan ishlatilishi kerak.

Naqshlanadigan qutichalar turli shakllarda ko'p uchraydi. Uning to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, olti va sakkiz qirrali dumaloq tuxumsimon ko'rinishda bo'ladi.

Qutichalar bo'yoq bilan ishlansa; yumshoq yog'ochdan tayyorlanadi. O'yib naqsh tushirilgan bo'lsa qattiq yog'ochlardan yasaladi. Hozirgi davrda o'yma qutichalar ayollar uchun kerakli bo'lib har xil narsalar solish uchun ishlatiladi.

O'tgan davrlarda qutichalar zebu-ziynatlarni saqlaydigan buyum sifatida ishlatilar edi. Hozirgi vaqtda esa o'sha vaqtda yasalgan qutichalar san'at durdonalari sifatida muzeylarda saqlanadi. Naqshlangan qutichalarning o'rtacha kattaligidagi o'lchamlari eni 20sm, bo'yi 30sm balandligi 10 sm bo'ladi. bu

o'lchamlar chegaralangan emas. Qutichalarda bunday kattarok yoki kichikroq o'lchamlarda ishlansa hambo'ladi. Naqshlanadigan qutichalar uchun yog'och materialini tanlash kata ahamiyatga ega, ishning sifatli chiqishi ham shunga bog'liqdir. Buning uchun ko'zimiz darz ketmagan, benuqson hamda rangi bir xil yog'ochlarni tanlash lozim. Naqshlanadigan qutichalar uchun eskiz bo'lsa shu eskiz o'lchami asosida quticha detallari tayyorlanadi va ular yig'ilib quticha yasaladi.





Naqshlanadigan yog‘ochdan yasaladigan buyumlardan kitob javonini ham olishimiz mumkin.

Yog‘ochdan yasaladigan buyumlardan uch qirrali, to‘rt qirrali, olti qirrali, sakkiz qirrali kursilar va xontaxtalar ham kiradi. Kursilar uchun bir xil ko‘zsiz quruq yog‘och tanlanadi. Buyum yasashdan oldin yog‘ochlarga arra va randalar yordamida ishlov beriladi. Kursilar murakkab birikmalar yordamida yig‘ilib biriktiriladi. Xontaxtalar ham shu tartibda yasaladi. Yog‘ochdan biriktirilib yasalgan kursi va xontaxta naqshlash uchun tayyorlanadi. Buning uchun rangsiz lak surtiladi. (chunki taxta suvda shishib ketmasligi uchun) gruntovka qilinadi. Ustiga oq guash yordamida bo‘yalib bir necha marta lezviya yordamida qirib tashlanib silliqilanadi va naqsh kompozitsiyasi tushiriladi. Eshik darchalarini va qashqarcha ayvonlarni bezatish uchun turli girih naqshlardan tuzilgan xontaxtalar ishlatiladi. Panjara naqshlarni to‘qish uchun reyka o‘plar tayyorlanib to‘qiladigan naqshning tuzilishiga ko‘ra naqsh yo‘llarining bir-biriga birikadigan joyi yarmigacha keladi. Toshkent ustalari panjara naqshlaridan foydalanib, ro‘zg‘orda




ishlatish uchun har –xil katta, kichiklikda shirmalar yasaganlar. Ular deraza shirmasi 4-5 qanotli katta shirma ko‘rinishida ishlatiladigan balkon shirmalar, shifokor xonasida ishlatiladigan meditsina shirmalari va shu kabilardir.

Bunday panjara va shirmalar yog‘ochdan yasalib naqqoshlikda bezatilishi ham mumkin.



## 1.2-§ Yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llaniladigan naqsh turlari va naqsh kompozitsiyalarning tuzilishi

Xalq amaliy bezak san'ati buyumlari qatori yog'ochdan yasalgan buyumlarga naqshin badiiy bezak ishlash san'ati ham alohida o'rin egallaydi. Yog'ochdan yasalgan buyumlarni ranglr orqali naqshlash-avloddan-avlodga o'tib kelayotgan noyob san'at turi hisoblanadi. U asrlar o'tishi bilan tobora sayqal topib, mukammallashib boradi, faqat uning qo'llanilish o'rni, vazifalari qisman o'zgarishi, bezak unsurlari (elementlari) talqinida turli-tuman yangiliklar sodir bo'lishi mumkin. Yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezatilishining asosini naqsh ya'ni ma'lum tartib va izchillikda joylashtirilib tuzilgan yaxlit bezaklar tashkil



qiladi. Naqshlar asosan, o'simlik dunyosi: novda, barg, gullar, mevalar, geometrik shakllar: uchburchak, to'rtburchak, oltiburchak, aylana kabilar va hayvonlar tasvirini naqqoshlar tomonidan badiiylashtirib hosil qilingan bezakdir.

Yog'ochdan yasalgan buyumlarga ham o'zining mazmuniga, ko'rinishiniga va tuzilishiga ko'ra-o'simliksimon (islamiy), geometrik, gulli girix va ramziy turlarga bo'lib qo'llanilib kelinadi.

**O'simliksimon naqshlar-** tabiatdagi o'simlik dunyosidagi daraxt, gullarning bandlari, butalari, barglari, kurtak va g'uncha kabi qismlarini naqqosh tomonidan o'zlashtirilib, badiiylashtirilib olingan shakllarini ma'lum qonuniyatlar asosida ritmik takrorlanishidan hosil qilinadi.

**Geometrik naqshlar-** yog'ochdan yasaladigan buyumlarning tuzilishiga qarab keng qo'llanilib kelinadi. U girix turkumidagi naqshlarni o'z ichiga oladi. Girix-chigal, tugun ma'nosini anglatib, murakkab handasiy naqsh turi hisoblanadi. Girixlar geometrik shakllar: uchburchak, to'rtburchak, oltiburchak, aylana va yoy

hamda ko`pburchak kabilarni o`z tarkibiga olib, tuzilishi jihatidan to`g`ri chiziq, egri chiziq hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan guruxlarga bo`linadi. Girixlar ham uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo`lib, har bir rapport o`z tuzilishiga ega bo`ladi.



**Gulli girix**-girix orasiga islamiy naqsh bilan to`ldirilgan murakkab naqsh turi.

**Ramziy naqsh**- shartli bezak; biror g`oya, tushuncha, hodisa va shakllarni ifodalaydi, eslatadi. Bu naqsh davlat ramzlari, yulduz, bug`doy va boshqa biror shartli shakllarni tasvirlaydi.

Qadimdan naqqoshlik san`atida yog`ochdan yasalgan buyumlarga qadama naqsh ishlash, naqsh qoplash san`ati chinakam gullab yashnaganligini ko`rsatuvchi ajoyib misollar bor. Xalq ustalari bu sohada bir talay ishlar qilishgan va zo`r san`at yaratishib kelishgan. Ana shunday benihoya ulkan san`at asarlaridagi naqshlar qanday mazmunga ega, qayerlarda qo`llaniladi va ularning chizilish texnologiyasi, o`ziga xos qonuniyatlari nimalardan iborat?

Yuqorida tanishib chiqqan fikrlarni davomi sifatida endi yog`ochdan yasalgan buyumlar qo`llaniladigan naqsh turlarining mazmuni, nomlanishi bilan tanishib chiqamiz.

Naqqoshlar tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalardagi har bir tasvirni sinchiklab ko`zdan kechirganimizda, uning zamirida ramziy ma`nolar yashiringanligi yaqqol ko`rinadi. Ular oddiy yoki g`oyat murakkab naqsh namunalarida ham eng yaxshi ezgu tilaklarni aks ettiradilar. Xususan, naqshlardagi unsurlarda va ularda qo`llaniladigan ranglarda o`zlariga xos ma`nolar mujassamlashgan. Masalan, gulsafsar-osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, to`lqinsimon gul poyasi boylik va farovonlik timsoli, novda va yaproqlar esa to`kinchilik hamda tabiatning bahor chog`ida uyg`onishini anglatadi. Ushbu ma`no

va mazmunlar mujassamlashtirilib bunyod etilgan naqsh kompozitsiyalar naqqoshlarning ona tabiatga chuqur muhabbatlarini ifoda etib, ularning jo`shqin hayot bilan doim hamnafas ekanligini bildiradi. Shuningdek, naqshlar bilan bezash xalq tasavvurida tilsim, sehr-jodu, aqidalar, urf-odatlar va pand-nasihatlilar bilan ham qorishib ketganligini ko`ramiz.

Har bir naqshning o`z nomi va mazmuni bo`ladi. Shunday ekan naqshlar naqshlanadigan buyumning shakli hamda qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tanlanaladi.


Masalan: turunj, islimiy, madohil, hoshiya, yaq raftor, lo`la hoshiya, islimiy guldona, hashti tufsar ruta, anorgul, morpech, islimiy guldona, islimiy madohil lamti, tufsor, sarkig`on tufSORI holat, xonasi bo`rtma, xashti davra, chorsar, davri sitora, shomdona yolgig`ich, zanjira, yakka zanjira, ganch islimiy, islimiy parrok, oftoba, erkin islimiy, bodom, islimiy, gulli aylana islimiy, bargil islimiy, bargli raftor, mexrob, islimiy, patlis, gulli islimiy, 5-rahli girih, 5 – 10 rahli girih, shoxbarg, islimiy qo`sh bargli islimiy lunabbatli girih, munabbati gul va boshqalar kiradi.

Morpech – (tojikcha mor – ilon, pech o`ralgan) ilon izi shaklidan iborat bo`lgan islimiy hoshiya naqsh. Marpech ganchkorlikda takcha, namoyon izora chetlariga hamda naqqoshlikda esa eshik, namoyon izora stol, stul va boshqa narsalarning chetiga ishlanadi.

Yog`ochdan yasalgan buyumlarga qo`llaniladigan naqshlardan biri ruta naqsh kompozitsiyasidir. Ruta – (ruscha – bordyur) ikki tamoniga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh. Chizilayotgan naqsh nusxasining xarakteriga qarab ketma-ket, to`ntarma usullarda unalishi mumkin. Naqqosh-ruta naqsh koipozitsiyasini chizayotganda to`ntarib takrorlaydi va axta yordamida aylantirib to`liq kompozitsichsini hosil qiladi. Ruta kompozitsiyasida bir yoki ikki ba`zan uch chiqish nuqtasi o`rtada bo`ladi (bo`sh joylarni to`ldirishda hizmat qiladi). Ketma-ket ulanuvchi rutalar bir ikki uch yo`naluvli bo`lishi mumkin.

Namoyon - forsha soʻz boʻlib kurinishi: manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon eng mukamallangan etuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon vaqelikning umumlashgan tasviriy obrazini oʻziga aks etadi. Namoyon murakkab naqsh kompozitsiya turiga kirib uning oʻsimliksimon geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud.

Har bir naqqoshlik maktabida namoyon naqsh kompozitsiyalari turlicha shaklda va oʻziga xos uslubda ishlanadi. Oʻzbek naqqoshlari manzarani aks etirishga ahamiyat berdilar, asosiy eʼtiborni dinomikaga qaratadilar, gul, barg elementlar koʻproq koʻzga tashlanadi.



Umuman, aytganda namoyon naqsh kompozitsiyalari Buxoro, Samarqand va Toshkent shaharlari zamonaviy binolarida keng qoʻlaniladi. U koʻproq devorning yuza qismiga ulanadi, chetlariga boʻrtma naqshlar oʻyiladi.

Azaldan yogʻochdan yasalgan buyumlarga ishlanadigan naqsh turlaridan yana biri munabbat naqsh kompozitsiyalaridir. Munabbat-arabcha soʻzdan olingan boʻlib oʻstirmoq degan maʼnoni anglatadi. Asosi toʻgʻri toʻrtburchakdan tashkil topib toʻrt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbat naqsh kompozitsiyalaridan keng foydalaniladi.

Munabbat naqsh kompozitsiyalari Oʻrta Osiyo naqsh kompozitsiyalarida koʻp qoʻllaniladi. Naqqosh munabbat naqsh kompozitsiyalarini chizayotganda uning toʻrtidan bir qismini olib, bir boʻlakka naqsh kompozitsiyani chizib, keyin esa axta (ulgi) yordamida toʻrt boʻlakka tushirib chiqilib toʻliq munabbat naqsh kompozitsiyalari hosil qilinadi. Munabbat naqsh kompozitsiyalarining

o`simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa turlari bor. Bulardan munabbati mehrob munabbati bofta, munabbati islimiy, munabbati girix va boshqalarni sanab o`tishimiz mumkin.

Yog`ochdan yasalgan buyumlarning bezatilishida turunj naqsh kompozitsiyalari ham alohida o`rin egallaydi. Turunj – arabcha limon degan ma`noni bildiradi. Ruscha medalion. Turunj naqsh kompozitsiyalarining ko`rinishi aval shaklida bo`lgani uchun uni shu nom bilan yuritiladi. Turunj naqsh kompozitsiyasi xech qanday naqshga ulanmay, muallaq turadigan naqsh kompozitsiyasi bo`lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan.

Hozir uning doira 5 – 10 rahmi yulduz: aval, romb, elips shakllari mavjud. Ana shu tanishib chiqqan barcha naqsh kompozitsiyalarini shu bino ichki qismini bezatishidan keng qo`llaniladi.

Qadimdan naqqoshlik san`atida yog`ochdan yasalgan buyumlarga qadama naqsh ishlash, naqsh koplash san`ati chinakam gullab yashnaganligini ko`rsatuvchi ajoyib misollar bor. Xalq ustalari bu sohada bir talay ishlar qilishgan va zo`r san`at asarlari yaratib kelishgan. Ana shunday benixoya ulkan san`at ishlaridagi naqshlar qanday mazmunga ega, qaerlarda qo`llaniladi va ularning chizilish texnologiyasi, o`ziga xos qonuniyatlari nimalardan iborat?

Yuqorida tanishib chiqqan fikrlarni davomi sifatida endi yog`ochdan yasalgan buyumlar qo`llaniladigan naqsh turlarining mazmuni, nomlanishi bilan tanishib chikamiz.

Naqqoshlar tamonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalaridagi har bir tasvirni sinchiklab ko`zdan kechirganimizda, uning zamirida ramziy ma`nolar yashiringanligi yaqqol ko`rinadi. Ular oddiy yoki g`oyat murakkab naqsh namunalarida ham eng yaxshi ezgu tilaklarni aks ettiradilar. Xususan, naqshlardagi unsurlarda va ularda qo`llaniladigan ranglarda o`zlariga xos ma`nolar mujassamlashgan.

Masalan, gulsafsar-osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, to'liqsimon gul poyasi boylik va farovonlik timsoli, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda tabiatning bahor chog'ida uyg'onishini anglatadi. Ushbu ma'no va mazmunlar mujassamlashtirib bunyod etilgan naqsh kompozitsiyalar naqqoshlarning ona tabiatga chuqur muxabbatlarini ifoda etib, ularning jo'shqin hayot bilan doim hamnafas ekanligini bildiradi.

Shuningdek, naqshlar bilan bezash xalq tasavvurida tilsim, sexr-jodu, aqidalar, urf-odatlar va pand-nasihatlilar bilan ham qorishib ketganligini ko'ramiz. Har bir naqshning o'z nomi va mazmuni bo'ladi. Shunday ekan naqshlar naqshlanadigan buyumning shakli hamda qanday maksadda ishlatilishiga qarab tanlanadi.

Har bir voqea va shaharlarning naqsh kompozitsiyalari bir-biridan o'zaro ajralib turadi. Toshkent, Xorazm, Farg'ona, Samarqand, Buxoro naqqoshlik maktablarining o'z ornament va rang koloritlari mavjud. Mustakil naqsh tuzish jarayonida stilizatsiya orqali naqsh elementlari o'zaro biriktiriladi. Naqsh bo'laklarining vazifalari va ravon chizilishiga e'tibor beriladi. Gul, barg, novda.

Kompozitsiya so'zi lotincha bo'lib "joylashtirish, ko'rish, tuzish" degan ma'noni anglatadi. Bunda tanlangan naqsh kompozitsiyasiga ko'ra uning elementlari qog'oz yuzasida bir-biriga bog'liq holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi. Tanlangan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun bir qancha xomaki eskizlar ishlanadi va ulardan talabga javob beradiganlari tanlab olinib, kompozitsiya tuzishda qo'llaniladi. Naqsh kompozitsiyalari tuzishda bo'laklarning o'rnini almashtirish, qo'shimcha detallar kiritish orqali uning mavzusini yanada boyitish kabilar ham muhim ahamiyatga egadir. Naqsh mavzusining ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim.

Kompozitsiyada naqsh yaratish muayyan qoidasini simmetriya, assimetriya, muvozanat, detallarning o'lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilish tashkil etadi va bunga qat'iy amal qilinadi.

Naqsh kompozitsiyasini tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Chizilajak naqsh kompozitsiyasini shakl, o'lcham va taksimlarini mo'ljalga olish.
- Kompozitsiyaning yakka yoki qo'sh banddan iborat bo'lishligi nazarda tutilgan holda tanob (yasovchi) elementi shakllarini joylashtirish.
- Kompozitsiyaga novda, barg, gul va boshqa naqsh elementlarini kiritib mukammallashtirish.
- Davriy takrorlanish.
- Naqsh bandini bofta, shkufta elementlari bilan bog'lab boyitish.
- Kompozitsiyaning asosiy shaklini umumlashtirib naqshni nomlash.
- Kompozitsiyaning ma'no va maksadini hisobga olgan xolda rang tuslarini aniqlash.
- Simmetrik joylashuv va ranglar mutanosibligini saqlash.

Yo'l, aylana, kvadrat shakllari uchun chiziladigan naqsh kompozitsiyalari ham ixtiyoriy ravishda mavjud naqsh elementlari birikmalaridan tuziladi.

Mustaqil naqsh tuzishni boshlashda o'quvchi ikki, uch va undan ortiq elementlar yordamida eng sodda naqsh kompozitsiyalarinilarini tuzishi mumkin. Bunda ixtiyoriy tanob shakli chiziladi va gul, novda, barg elementlari yordamida to'ldiriladi. Mavjud kompozitsiyani shakl yoki gul elementlari nomlari yordamida nomlash mumkin.

Yo'l, aylana, kvadratga chiziladigan naqsh kompozitsiyalarini ham ixtiyoriy ravishda mavjud naqsh elementlari birikmasidan tuziladi. Ular qanday naqsh kompozitsiyalari pishik va chiroyli chizilishiga ahamiyat berilishi kerak.

Elementlarning o'zaro tartibli joylashuvi naqshning jozibasini yanada oshiradi.

Mustaqil naqsh kompozitsiyasini tuzishda ham xalq ustalari ijodini kuzatish, xalq amaliy san'ati muzeyiga borish va nusxa ko'chirish yaxshi samara beradi. O'quvchi qancha ko'p naqsh elementlarini yoddan chiza olsa, kompozitsiya tuzish shunchalik oson kechadi.

Tuzilajak naqsh kompozitsiyalari bo'laklar asosida tuzilib, uning nusxasi



maxsus usulda kerakli joylarga ko'chirilib tushiriladi. Bu usuldan foydalanish uzoq vaqtlar mobaynida naqqoshlar mehnatini ancha engillashtirib kelmoqda. SHu ko'rsatmalarga muvofiq shakl yasovchi reja- kolip 4\1 nisbatda chizib olinadi. Ramka chiziqlari yakka, qo'sh va bir necha qo'shimcha chiziqlardan iborat bo'lishi mumkin. Patnis ko'rinishidagi bu shaklga bofta va gajak elementlari ulanadi. Navbatdagi bosqich yakka yoki qo'sh bandli tanob yasovchisini topishdir. Tanob shakli mehrob va yurak shaklidan iborat bo'lishi ham mumkin. Mashqlar davomida chiziq harakatining ravonligiga shakl chiziqlarining qiyshiq yoki siniq holatda chizilib qolmasligiga e'tibor qaratiladi. Yakka band yo'lidan iborat tanob ayrisi shkufta elementi bilan bog'lanadi. Endi yuza bo'shliqlariga gul, novda, barg va boshqa elementlarni bir-biriga bog'lagan holda joylashtirish rejalashtiriladi. Novda shakllar bo'yicha harakatlantirilib chizib boriladi. Kompozitsiya tarkibidagi novdaning chizilishi gul va boshqa naqsh elementlarining bir-birlari bilan yaxlit, uzviy bog'lanib ketishini ta'minlaydi. Naqsh namunasiga novda, gul va barg elementlarini joylashtirish, ya'ni ulash natijasida kompozitsiya mazmuni tugal echimini topadi, mavjud naqsh kompozitsiyasi patnis ko'rinishidagi naqshlar turiga xos bo'lganligi sababli "Patnis islimi" deb ataladi.

Kompozitsiya rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo'yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o'zaro mutanosibliigi hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nushasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida har bir bo'lakka ishlov berilgan holda uning nushasi kerakli joylarga ko'chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

Naqshlar mazmuniga ko'ra o'simliksimon, girix, gulli girix, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi. O'simliksimon naqsh tabiatdagi barg, band, daraxt, buta va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan.

Girix- geometrik shakllardan tuzilgan bo'lib, chigal, tugun ma'nosini anglatadi. Xandasiy naqsh - murakkab naqsh turi. U geometrik naqsh turlaridan biri bo'lib, to'rtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan hamda

ko'pburchaklardan iborat bo'ladi. Geometrik naqsh uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir rapport o'z tuzilishiga ega bo'ladi.

Ruta - ikki tomonga ulanuvchi naqsh takqsimi, ya'ni hoshiya naqsh. Uning o'lchami ko'pincha 14-20 sm atrofida bo'ladi. Hoshiya naqsh turli xil bo'lib, uning mehrobga, xonaga ishlanishiga qarab lo'la xoshiya, ishkomb va boshqa turlari bo'ladi.

Munabbat - arabcha o'stirmoq degan ma'noni anglatadi. Asosi kvadrat yoki to'rtburchakdan tashkil topib, to'rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbatdan foydalaniladi. Munabbatning o'simliksimon, geometrik va boshqa kompozitsion turlari bor. Uning munabbati mexrob, munabbati bofta, munabbati islami, munabbati girih va boshqa atamalari mavjud.

Turunj - arabcha "limon" degan ma'noni bildiradi. Ruscha medalon. Naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. Turunj xech qanday naqshga ulanmay muallak turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib, boyitilgan.

Namoyon - forscha ko'rinish, manzara demakdir. Namoyon xech nimaga ulanmaydigan mustakil kompozitsiya bo'lib, murakkab naqsh turiga kiradi. Uning o'simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud. Namoyonlar simmetrik va assimetrik tuzilishga ega bo'ladi.

### **1.3-§ Yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezash uchun qo'llaniladigan naqsh kompozitsiyalariga rang tanlash, ranglash, pardoqlash bosqichlari. Bitiruv-malakaviy ishning amaliy qismini bajarish jarayoni.**


Har qanday buyum yuzasi uchun naqsh kompozitsiyalarni yoddan bemalol chizishni o'rganib olgandan so'ng, bo'yoqlar va rangshunoslik haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak.

Yog'ochdan yasalgan buyumlarga chiziladigan har qanday naqsh kompozitsiyasiga rang tanlashda o'ta kuchli e'tiborni qunt va malakani talab qiladi. Buning uchun buyumlar yuzasiga tushirilgan naqsh kompozitsiyalarining tuzilishiga qarab rang tanlash va bo'yash bosqichlari bajarilib boriladi.

Yog'ochdan yasalgan buyumlarga chizilgan naqsh kompozitsiyasini bo'yashdan oldin, unga ishlatiladigan rangli bo'yoqlar asosan guash, siqma akvarellarni tanlab yig'ib olishimiz kerak. Naqsh kompozitsiyasini bo'yashdan oldin qog'ozga palitrada ranglar koler tasvirlash mashq qilinadi. Guash juda suyuq bo'lsa naqsh yuzasi tekis bo'lmaydi. Agar guash juda quyuq bo'lsa mo'rt bo'lib ko'chib tushadi. Kolyor tayyorlashda chinni yoki plastmassa idishchalardan foydalaniladi. Har bir rangli guashga alohida- alohida yog'och kurakchalar ishlatiladi. Naqshlarni bo'yashda elementlarning aniqligiga, simmetrikligiga e'tibor berish, rang gammasiga, koloritiga, ranglarni bog'liqligiga va tiniqligiga, ko'zga yaqqol tashlanadigan dog'larning bo'lmasligi, naqshlarni toza va ozoda chiqishi, naqsh kompozitsiyasining ta'sirchanligiga bo'yoq qavatlarining tekis chiqishiga, guash texnologiyasiga qat'iy rioya qilish kerak.

Naqsh kompozitsiyasi biror gammada masalan, yashil, zangori, jigar rang, pushti, limon rang yoki boshqalarda bo'yaladigan bo'lsa, qaysi rang asosiy kolorit rang bo'lsa shu hukmron rangga bo'ysundiriladi. Naqshdagi qolgan har qanday ranglar shu rang gammasini buzmasligi kerak.

Naqsh kompozitsiyasini ishlashda garmoniya, faktura va kontrastga e'tibor berish kerak.



**Garmoniya**– gerekcha soʻzdan olingan boʻlib munosiblik, bogʻliq boʻlish, muvofiqlik, degan maʼnoni anglatadi. Naqqoshlikda naqshning oʻlchami rangi, shakllari nisbatidagi eng chiroyli uzviylik.

**Faktura**– lotincha tuzilishi ishlab berish degan maʼnoni bildirib naqsh yoki biror tasvirni ishlanadigan buyum sirtining tuzilishi va uning ishlovi.

**Konrast**- frantsuzcha keskin farq degani boʻlib, ranglarning qarama-qarshi yoki ranglarni bir-biridan keskin farqi.

Yogʻochdan yasalgan buyumlar yuzasiga, axta yordamida tushurilib chiqilgan naqsh kompozitsiyalari quyidagi bosqichlarda boʻyaladi.

1. Eng avvalo naqsh kompozitsiyasi zamini, yaʼni katta yuzalar.
2. Kichik yuzalar.
3. Barg gʻunchalari va boshqalarni.
4. Naqsh kompozitsiyasining gullari va barglari pardoz yaʼni targʻil beriladi.

Ana shu bosqichlar toʻliq bajarilgandan keyin naqsh kompozitsiyasi mukammal tugalgan hisoblanadi. Yana bir narsani yaʼni naqsh kompozitsiyalari barg gullari, gʻuncha va barglarga pardoz yaʼni targʻil berish texnikasini oʻzlashtirish talab qilinadi.

Pardozlash texnikasini ham quyidagi bosqichlarda bajariladi:

1. Parallel ingichka chiziq taroqlari.
2. Naqsh, barg va gullarning urugʻ va ganchchilarni tasvirlash.
3. Targʻilning oʻrniga edirma usullaridan foydalaniladi.

Edirma usuli ranglarni to`qdan ochlanib ishlatish yo`li bo`lib, mo`yqalam surkalgan rangli quruq suvli mo`yqalamda asta edirib tarqatiladi.

4. Naqshlarining oq bandlari va obilari tortiladi.

Pardozlash bosqichlarining chiroyligi ishning muvaffaqiyatli chiqishiga yordam beradi.



Biz yuqorida yog`ochdan yasalgan buyumlarning tuzilishi, ularga qo`llaniladigan naqsh turlari, naqsh kompozitsiyasining nomlanishi va ranglash, pardozlash qonuniyatlari haqidagi ma`lumotlar bilan tanishib chiqqanmiz. Endi ana shu buyumlarga dastlabki ishlov berish, naqshlashga tayyorlash, naqsh kompozitsiyasi eskizini tuzish va buyumga tushirish, ranglash, pardozlash bosqichlariga to`xtalib o`tmochimiz.



Yog`ochdan yasalgan buyumlarga naqsh ishlash uchun avvalo tanlangan yog`och materialiga dastlabki ishlov berish ya`ni buyum yuzasini tekislash lozim. Chunki dastlabki ishlov berilmasa buyum qancha chiroyli naqsh kompozitsiyalari bezalsada buyum yuzasi g`adir-budir chikib ish sifatsiz chiqadi.

Yog`ochdan yasalgan buyumlarga dastlabki ishlov berish yog`ochni rangsiz lak bilan grunt qilishdan boshlanadi. Chunki agarda yog`och rangsiz lak yordamida bo`yalmasa naqsh kompozitsiyasi tushirib bo`yalgandan keyin yog`och bo`yoqni ya`ni rangni shimib olib rangning tiniq chiqishini ta`minlamaydi. Buyum laklangandan keyin yoriq va tekis joylarini elim va bo`r aralashmasidan hosil qilingan shpaklevkadan foydalanib, tekislab chiqiladi.

Shpaklevka-nemischa kurakcha, yuzalarini bo'yash hamda pardozlashdan oldin sirtini tekislash uchun suriladigan quyuq massa. U bo'r (mel), yog'och elimi, alif moyi kabi moddalarni qo'shib tayyorlanadi. Yuzalarni shpatel yordamida quyuq massa surtib tekislashga shpaklevkalash deb yuritiladi. Shpaklevkani suyuqroq yoki quyuqroq qilib tayyorlashimiz qaysi joyga ishlatishimizga bog'lik. Shpaklevka ishlatishdan avval ikkita shpatel yordamida ozgina shpaklevkani obdon bir-biridan o'tkazib ezgilab, aralashtirib keyin kerakli joyga surtish boshlanadi. Uch xil shpatel yordamida buyum yuziga bir tekis surtib chiqiladi va u qurigandan sung choklari ustidan ikki uch marta yana shpaklevka surtiladi. U qurigandan sung o'rtacha va mayda donali qum qog'ozda silliqlanadi.

So'ng yog'och elimini suvda eritib donadan yoki mayda ko'zli elakdan o'tkazib yog'och sirtiga katta ya'ni 18-20 raqamli mo'yqalamda surkab chiqiladi.

Surkalgan yelim qurigandan sung oq guash bir tekisda surkab chiqiladi. Qotgandan sung katta raqamli mo'yqalamda tekislab chiqiladi. SHu bosqichlarning barchasi to'la -to'kis bajarilgandan keyin buyum yuziga moslab naqsh kompozitsiyasi eskizi chizila boshlanadi.

Biz yuqoridagi bitiruv-malakaviy ishining rejalarida yoritilgan naqsh kompozitsiyalarini tuzish qonuniyatlariga suyangan xolda yog'ochdan yasalgan sovg'a buyumlarining yuzasiga moslab naqsh kompozitsiyasi tuzishga kirishildi. Sovg'a buyumlari sifatida lavx va turli o'lchamdagi qutichalar tanlandi.

Yog'ochdan yasalgan sovg'a qutichasi va lavh yuzasiga moslab naqsh kompozitsiyasi eskizlari ustida izlanishlar olib borildi. Chizilgan bir nechta eskizlar ichidan eng ma'quli tanlab olinib sovg'a qutichasi va lavh yuziga axta (ulgi) yordamida tushirib chiqildi.

Axta-naqsh yoki bir rasmni shaffof (kalka ) qog'ozga chizib chiziq yo'llari igna bilan teshilib buyumga yoki biror sirtga tushirish uchun tayyorlangan andoza.

Naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya o'qi bo'yicha shaffof qog'ozni ikkiga, to'rtga va hokazolarga buklanadi.

Buklamani bir qismga naqsh chiziladi. Naqshni shaffof kogoozni yumshok yostikcha ustiga qo'yib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan chiziladi.

Naqshni yirik va maydaligiga qarab igna tanlanadi. Igna teshigi oralig'i naqshning mayda va yirikliga bog'likdir. Agar naqsh mayda bo'lsa igna oralig'idagi masofa shuncha yaqin bo'ladi. Naqsh nushasini teshib bo'lgandan keyin shaffof qog'oz yoyilib yuboriladi, natijada axta hosil bo'ladi. Tayyor bo'lgan axtani buyum yuzasiga qo'yib ustidan xoka bosilib yurgizib chiqiladi, natijada naqsh nusxasi buyum yuzasiga ko'chadi.

Yog'ochdan yasalgan sovg'a qutichasi va lavhni bo'yamasdan oldin qog'ozda eskizlarga ranglar tanlanib chiqildi va sovg'a qutichasi va lavhga ko'chirish ishlari olib borildi. Ranglar plastmassa va chinni idishlarda tayyorlanib chiqildi. Har bir ranga alohida-alohida yog'och ko'rakchalar ishlatiladi.

Naqsh kompozitsiyalari rangini ishlatmada turli ranglardan foydalanildi.

Yog'ochdan yasalgan sovg'a qutichasi va lavh yuzasiga naqsh kompozitsiyalar quyidagi bosqichlarda: eng avvalo naqshning zamini, ya'ni eng katta yuzalarni, keyin kichik yuzalar, so'ngra barg, gul, g'uncha va boshqalari naqshning bandlari bo'yalib chiqildi. Naqsh kompozitsiyasini ranglash ishlari to'liq tugagandan keyin pardozlash ya'ni targ'il berish bosqichiga kirishildi. Naqsh gullari, g'uncha va barglariga quyidagi ikki xil texnikada bezatildi:

- 1) parallel ingichka chiziq taroqlar yordamida;
- 2) barg va gullarning urug' va changchilarini tasvirlash yordamida.

Yog'ochdan yasalgan kitob javoni yuzasiga ishlangan naqsh kompozitsiyasi to'liq tugagandan keyin bo'yoqlari yaxshilab qurigan naqshga yanada jilo berish maqsadida rangsiz lakdan foydalanib surkab chiqildi. Moyli laklar alifmoy plenklariga qaraganda yaxshi, tiniq, mustahkam va qattiq plenka hosil qiladi.

Naqshlangan buyumga lak surtish qiyin jarayon emas. Masalan yuzaga lak surtishda mo'yqalam ikki xil yo'nalishda, bo'yiga va eniga parallel qilib

yurgiziladi. Bu jarayon bir necha marta tkrorlanadi va rangsiz lak yaxshilab quritiladi. Shundan keyin oq tempera bilan obisi tortilib ish to‘liq yakunlandi.

## **II-bob. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga O‘zbekiston naqqoshlik maktabi va uning namoyondalarining ijodini o‘rgatishning nazariy asoslari**

### **2.1-§ Naqqoshlik san’atining rivojlanish bosqichlari va maishiy hayotimizda tutgan o‘rni**

O‘rta Osiyo naqqoshlik san’ati qadimdan dunyoga mashhur. O‘tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo‘qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

Milliy naqshlarimiz g‘oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg‘u asboblari, uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o‘ylantiradi. Bu go‘zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo‘lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me‘morchilik hamda tasviriy san’at rivoji bilan bog‘langan holda takomillashib bordi.

Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma’noni anglatadi. Qush, hayvon, o‘simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil



qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado‘zlikda, zardo‘zlik, kulolchilik,



zargarlik, gilam to‘qish, to‘qimachilik, panjaralar va hokazolarda har xil yo‘llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o‘yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san‘ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko‘rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma’lum bo‘ldi.

Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko‘rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o‘ziga xos muhitiga: geografik o‘rniga, o‘lkaning o‘simlik dunyosiga ko‘ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalq gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko‘rasiz. Evropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo‘ldi. Bu esa o‘z-o‘zidan naqqoshlik san‘atining rivojlanishiga ta’sir etdi.

O‘zbekiston territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san‘atining rivojlanganligi ma’lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (1-11 asr), Dalvarzintepa (1 asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqal’a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma’lum. VI—VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o‘yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo‘ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko‘rib hayron bo‘ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, rasmlar urishi, manzaralar hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli mahluqlar qizil va ko‘k ranglar bilan bo‘yab tasvirlangan. VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O‘rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o‘zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi g‘oya O‘rta Osiyo tasviriy san‘atiga ta’sirini o‘tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks etdirish man etildi. «Keyinchalik yuzaga kelgan diniy

sharhlar va hodisalar ko‘proq murosasiz yo‘l tuta borib, qat’iy ravishda shunday der edi: «Tangri yoki odamzod suvratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini soling, aks holda bu qoidani buzgan kishi gunohi azim qilgan bo‘ladi», deb qo‘rqitilgan. Jonli mavjudotlar suvratini chizish man etilishining ma’nosi shundaki, xudodan boshqa hech kim biror narsa yaratish u yoqda tursin, hatto Xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va bu uning qo‘lidan kelmaydi, aks holda musavvir Xudo bilan bas boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo‘ladi»

Islom talablariga bo‘ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo‘qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o‘zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo‘ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Xullas tasviriy san’at rivojlanmaydi. Buning hisobiga xalq amaliy bezak san’ati naqqoshlik hisobiga rivoj topdi. IX—X asrlarda O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g‘isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog‘och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbih va boshqalar naqadar mo‘llicini ko‘ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo‘layotgan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o‘ziga xos ma’no bo‘lgan. Chunonchi, o‘simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pechak islmiy» naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to‘kinchilik hamda bahor chog‘ida uyg‘onishni bildiradi. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo‘lgan muqabbatini, bildiradi. Uning ranglari o‘ziga xos ma’no va harakterga ega. Naqsh o‘zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo‘lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari birbiriga mutanosiblik, uyg‘unlik, yo‘sin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e’tibor berib, uning tabiiyligini yo‘qotmaganlar, har bir elemekt

ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir iaqsh negizda ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI—XII asrlarda O'zbekiston territoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan.

Girih — forsha, chigal, tugun degan ma'noni beradi. Xandasiy naqsh — to'rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab naqsh turi. Girih to'g'ri, egri va aralash chiziq'larga bo'ysundirilgan bo'lib, o'ziga xos shartlilikka ega. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san'atining rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlar ochib berdi. O'zbek madaniyatining rivojlanishiga butun dunyoga mashhur olimlar -Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), Beruniy, Firdavsiy va Ro'dakilar etishib chiqdilar. O'sha vaqtda butun dunyoga mashhur bo'lgan (*YUNESKO muhofazasidagi*) Somoniy maqbarasi qurildi. U 1127 yili me'mor Arslon Muhammadxon boshchiligida pishirilgan oddiy g'ishtni har xil kombinatsiyalashtirib qurilgan. G'ishtlar yoz faslida eng toza ganch bilan terilib ishlangan.

Xalq rivoyatlariga ko'ra, me'mor bu minorani qurganu, ko'zdan g'oyib bo'lgan. Imorat yaxshi cho'kib, o'rnashib terilgan yaxlit toshga aylangandan keyin me'mor paydo bo'lib pardoiz ishlarini boshlagan.

«XIII asrda yuksak ko'tarilgan milliy madaniyatni mongol bosqinchilari izdan chiqardi. 1219—1221 yillarda Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Marv bosib olinib tor-mor qilindi».

XIII asrda Chingizxon hukmronligida milliy san'at birmuncha izdan chiqsada, lekin butkul yo'q qilinmadi. Temur va temuriylar davrida esa o'zbek milliy xalq amaliy san'ati yuksak darajada rivojlandi.

«XIV—XV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari tarixida taraqqiy etgan feodalizm iqtisodiy-ijtimoiy formatsiyasi davrida feodal ishlab chiqarishga asoslangan o'ziga xos bir iqtisodiy-madaniy ko'tarinkilik ro'y berdi. Bu davrni biz hozir Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzodga o'xshash juda ko'p iste'dodli adiblar, olimlar, mutafakkirlar, san'atkorlar nomlari bilan bog'liq

bo'lgan Uyg'onish (Renessans) davri deb ataymiz. XIV—XV asrlarda Samarqandda tez sur'atlar bilan turli-tuman inshootlar qurila boshlagan. Bu qurilishlarda Hindiston, Eron, Iroq, Zakavkaze, xullas Amir Temur hukmronligi ostida bo'lgan barcha o'lkalardan kelgan me'morlar, hunarmandlar, ustalar, san'atkorlarni ko'rish mumkin edi. Ular o'zlari bunyod etayotgan inshootlarga butun bilimlari, hunarlari va san'atkorona mahoratlarini baxsh etganlar. O'sha davrda Samarqand va Movarounnahrning boshqa joylarida bunyod etilgan juda ko'p hashamatli tarixiy madaniy obidalarda O'rta Osiyo xalqlaridan tashqari butun yaqin va O'rta Sharq xalqlarining o'ziga xos boy, sermazmun badiiy-estetik merosining sintezi qorishib, uyg'unlashib ketgan edi, desak mubolag'a bo'lmasa kerak».

Temuriylar xonligida hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. U bosib olgan erlardagi hamma ustalarni Samarqandga yig'di».

U tikuvchi, toshtarosh, zargar, kulol, naqqosh va boshqa ustalarni olib kelib ishlatgan. Shu san'at turlari qatori naqqoshlik am tez rivojlana boshladi. Temur hukmronligi ostida juda ko'p bino, machit, madrasa va boshqalar qad ko'tardi. Undagi bezaklar yanada badiiylashtirildi. SHaharlar atrofi bog'u bo'stonga aylantirildi. Xullas u o'zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda katta hissa qo'shdi. Ayniqsa tasviriy san'at qaytadan tiklanib, tez orada rivojlanib ketdi. Devorlarda osmon, sobit sayyoralar, tog'lar, dengizlar, sahrolar, odamlar, hayvonlar va boshqalar aks ettirildi. O'sha davrda tasviriy san'atning asosiy vazifasi hukmdorlarning kuch-qudratini, harbiy shavkatini ulug'lashdan iborat edi. Afsuski ko'pgina urushlar oqibatida qozirgacha qasrlardagi, turar joylardagi va jamoat binolaridagi tabiat rasmlari bizgacha etib kelmagan. Ayrim qoldiqlargina saqlanib qolgan. Ayniqsa oppoq ganch ustidan chizilgan gullar, manzaralar, qushlar tasviri nihoyatda nafis ifodalangan. «Tabiat manzaralari musavvir tomonidan shu qadar ustalik va chaqqonlik bilan ado etilganki, uning qo'li bamisoli qush parvozidan erkin harakat qilgan, shoir tili bilan aytganda, tutgan mo'yqalami musavvirning o'z barmoqlariday aniq

harakat qilgan, usta bilan qil o'tmas do'st mo'yqalam go'yo uning amriga mahtalday».

XIV—XV asrlarda koshinkorlik rivojlandi, qurilgan binolarni koshin va parchinlar bilan bezatish avj oldi. Koshin va parchinlardan ajoyib naqshlar hosil qilishga erishildi. Chunonchi, Samarqanddagi Shohi-Zinda kompleksi, Ashratxona, Oq saroy, Ko'hna Urganchdagi To'rabekxonim maqbarasi va boshqalardir. XV asrda naqqoshlik san'ati yanada rivojlandi. Natijada naqqoshlikda kundal texnikasi paydo bo'lib rivoj topdi. Samarqandda Ashratxona, Oqsaroy maqbaralari va boshqa arxitektura yodgorliklarining ichki qismini kundal usulida bezaldi.

Tundal — arxitekturada devorga bo'rtib ishlangan bezak texnikasi. Me'morchilikda keng tarqalgan. Mo'yqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo'rtma shakl oladi, ustidan bo'yoq va zarhal beriladi. Zamin zarhalga, asosiy bo'rtma naqsh elementlari turli-tuman ranglarga bo'ya-ladi yoki aksincha, bo'rtma naqsh zarhalga, zamin esa turli rangga bo'yaladi. XV asrdan boshlab Samarqanddagi Ashratxona maqbarasi, Buxorodagi Amir maqbarasi, Baland machitida jozibador namunalar saqlangan. O'rta erda kundal texnikasidagi bezaklar keng tarqalgan

XVI—XVII asrga kelib syujetli rasmlar deyarli chizilmay, balki kundal usulida naqshlar bilan bezash rivoj topdi. Kundal usulida Buxorodagi Xo'ja Zayniddin xonaqosi (XVI asr), Baland machit (XVI asr), Abdulazizxon madrasasi (XVI), Samarqanddagi Tillakori madrasasi (XVII asr) va boshqalar bezaldi. Bu arxitektura binolarida bezalgan naqshlar o'zining badiiyligi, harakatchanligi, o'ziga xos originalligi bilan kishini hayratga soladi. Naqshlarning har biri bir katta asar bo'lib voqelikni naqqosh tili bilan kuylayotgandek tuyuladi. Lekin XVII asrning oxiriga kelib, bir necha joyda takrorlanadigan naqshlar va mavzularning bir xilligi, tillaning haddan tashqari sarf etilganligi ko'zga tashlandi. Ayniqsa bu sohada ijodiy izlanishlar kam bo'lganligi sezildi.

XVI—XVIII asrlar orasida o‘zaro ichki urushlar va nizolar madaniyatning rivojlanishiga salbiy ta‘sir etdi. Bu esa milliy naqqoshchilik san‘atining rivojlanishiga ham ta‘sir etdi. Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari vujudga kelish bilan san‘atkorlar bu shaharlarga yig‘ila boshladi. SHu vaqtdan naqqoshlik xalq amaliy san‘at turlari kabi gullab yashnay boshladi. Xivadagi Toshhovli, Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi Buxorodagi Sitorai Mohixosa singari yirik binolar ajoyib naqshlar bilan bezatildi. Hajmli - planli naqsh kompozitsiyalar paydo bo‘ldi. Bu bezaklar nihoyatda nafisligi bilan ajralib turar edi. Naqsh san‘atining rangbarang rivojlanishi, har bir shahar va vohaning o‘ziga yarasha naqqoshlik maktabi paydo bo‘ldi. Chunonchi Farg‘ona, Toshkent, Xorazm, Samarqand va boshqalar. Ular o‘zining kompozitsiyalari, rangi jihatidan va boshqa tomonlari bilan farqlanadi.

XIX va XX asr boshlarida turar joy binolari, mahalla machitlari, saroy va o‘quv yurtlari binolari, choyxonalarning devor va shiftlari jimjimador naqshlar bilan bezatildi. Ayniqsa devorlar sirtiga daraxtlar, guldastalar, guldonli guldastalar, gulli butoqlar jonli chiziqlar bilan bezatildi. Chunonchi Quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdagi knyaz N. K. Romanovlar saroyi, A.A.Polovsevning uyi, Marg‘ilondagi Saidahmadxo‘ja madrasasi va boshqalar. Ma‘lumki, Islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish faqatgina qodir Tangriga xosdir, insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, inchunin, bordiyu biror ishni yuqori takomil darajasida ijro etish imkoni yo‘qligi avvaldan ma‘lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o‘zi aqldan emasdur. Boshqacha aytganda, qech bir tasvir unda ifodalangan mavjudot darajasiga ko‘tarila olmaydi, shu bois tasvir soxta bo‘ladi.

Tasviriy san‘atga bu qadar chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o‘zbek milliy bezak san‘atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo‘lganki, hozirda jahonga mashhur me‘morchilik yodgorliklarimiz ularda-gi

ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unlashgan mujas-samligidan iboratdir.

Ma'lumki, mavjud barcha san'at turlari o'z o'quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o'tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta'siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o'rinda amaliy bezak san'ati turlarining fazilatleri juda ham o'ziga xos bo'lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Ya'ni, bunday san'at asarlari ayni choqda ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Bu maqsadlar yo'lida olib boriladigan izlanishlar xalq ustalari, san'atkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning badiiy ta'lim olishlari, san'atlarni egallashlarini tashkil etish va to'g'ri ilmiy-metodik yo'nalishda olib borish, san'atkor pedagoglar tayyorlashni yo'lga qo'yish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat bo'lishi kerak.

San'atkorlarni targ'ib qilish o'choqlari sifatida maktablar, klublar, madaniyat saroylari va o'quvchilar saroylarida tashkil etiladigan to'garaklar alohida ahamiyatga ega.

**Naqqoshlik maktablari.** Xonliklar davrida xalq amaliy san'ati ustalari Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarkand kabi shaharlarga yig'ila boshladilar. Ko'pincha Farg'ona va Buxoro naqqoshlari Samarkandga, £ukon, Margilon ustalari Toshkentga kelib ko'pgina binolarni bezar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga, o'ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta rol o'ynaydi. Lekin bu naqshlar bir-biriga o'xshasada, har bir naqqoshlik maktabi o'zining alohida kompozitsiyasi, ish uslubi, rang koloriti bilan ajralib turadi.

**Toshkent naqqoshlik maktabi.** Toshkent naqshlari o'zining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin utishi, anik bir koloritga kat'iy rioya kilinishi, geometrik va usimliksimon naqshlarning ko'p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko'pincha yashil gammada ishlanadi. Islimiy naqshlarda oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar anik stillashtirtlgan

murakkab girix naqshlari ham keng qo'llanilgan.

Naqqosh ustalardan Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Jalil Hakimov, Toir To'xtaho'jaev, Zokir Bositxonov, Maxmud To'raev, Anvar Ilxomov, Komil Karimov, va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabi asoschilaridirlar.

Yo.Raufov tojik naqqoshlik maktabining an'alarini saqlagan holda ajoyib kompozitsiyalar yaratgan. Ijodkor o'zbek-tojik naqshlarining boy madaniy merosidan mohirona foydalanib, ko'pgina islamiy va geometrik naqsh kompozitsiyalarini yaratdi. Uning naqshlari ranglarining yorqinligi hamda bir-biriga uyg'unligi bilan ajralib turadi. U o'z kompozitsiyalarida yangi-yangi elementlarni kashf etgan. Yo.Raufov naqshlarni bo'rttirib, kundal texnikasidan ham foydalandi.

T.To'xtaxo'jayev murakkab uslubdagi naqsh kompozitsiyalarini tuza olgan. Ustaning oltinsimon-jigarrang koloritdagi naqshi Toshkent naqqoshlik maktabining rivojlanishida qo'yilgan yangi bir qadam bo'ldi.

O'zbek naqqoshlik maktabini rivojlantirishda samarali hissa qo'shgan Olimjon Qosimjonovning talantli shogirdi, naqqoshlik bo'yicha o'ziga xos maktab yaratgan, juda ko'p shogirdlarning ustozlari-O'zbekiston xalq rassomi Jalil Hakimovdir. Ota-bobolarimizni qadimdan yaratib kelgan naqshlarini qayta tiklashda ustaning xizmatlari kattadir. J.Hakimovning naqshlarini e'tibor berib kuzatsak, undagi naqshlar elementlarga boyligi, aniq, ravonligi, yorqin yashil koloritda bo'lishi bilan ajralib turadi. U gulli girih kompozitsiyalarini juda ko'p ishlagan. J.Hakimov o'zbek milliy naqqoshlik san'ati an'alarini puxta egallagan, uni samarali davom ettirgan san'atkordir. Usta naqshlagan xontaxta, kursi, quticha va boshqa buyumlar dunyoning ko'pgina davlatlarida yuqori baholangan. Uning ijodi Sharq an'analari ruhida rivojlandi, tarixda o'chmas iz qoldirdi.

**Xiva naqqoshlik maktabi.** Xiva naqshi Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro naqshidan tubdan farq qiladi. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlatilgan. Islamiy naqsh kompozitsiyasida novda, marg'ula, shukufra, barg, no'xat, gul, oddiy oyguldan tashkil topadi. Ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girihlar



ishlatilib, orasi spiralsimon islmiy naqsh bilan boyitilgan. Xiva naqshlari umuman madoxilli naqshlar asosida tuziladi. Islmiy naqsh esa spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshlik maktabining yorokin namoyandalari Abdulla Boltayev, Ro'zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapayev va boshqalar.

**Buxoro va Samarqand naqqoshlik maktablari.** Buxoro naqshi kompozitsiyalarining murakkabligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girixlar aniq va puxta o'lchamda ishlatilishi, o'simliksimon naqshlarning yaproq, meva, gul barglar ritmiga alohida e'tibor berilishi bilan farqlanadi.

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlari o'ta guldorligi, barg va gullarining o'ta harakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Naqshlar avval zangori, keyin esa yashil rang gammasida ishlangan. Usta Raxmonqul, usta Jamoliddin, usta Abduzoxid, usta Sharif, usta Alimjon, usta Boqi, keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilovlar kabi naqqoshlar Samarqand naqqoshlik maktabini yaratilishiga asos soldilar va uning rivojlanishiga ulkan hissa qushdilar.

## **2.2-§ Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini xalq amaliy bezak san'atidan amaliy bilimlarini oshirish omillari.**

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, kasbiy jihatdan mutlaqo yangi zamon kishisini shakllantirishni taqozo etadi. Hozirgi zamon yoshlarini milliy, sharqona, tarixiy qadriyatlarni hisobga olgan holda, zamonaviy ruxda tarbiyalash hamda kasbiy insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kasb sohiblarini tayyorlash muammosi davlat miqyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda respublika hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy san'at namunalaridan, ota-bobolar tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashxur

boʻlgan ajoyib sanʼat namunalaridan keng foydalanishga keng ahamiyat berilmoqda.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablaridagi badiiy naqqoshlik toʻgaragi ishlarini ijodiy jarayonini oʻquvchining oʻziga qiziqish asosida yoʻlga qoʻyish kerak.

Birinchi navbatda hunar oʻrgatishga harakat qilinadigan, bu ish oʻquv vaqtining koʻp qismi ajratiladigan maxsus maktablardan farqli oʻlaroq mazkur toʻgarakda oʻquvchilarning ijodkorligi birinchi oʻringa qoʻyilishi lozim. Toʻgarak qatnashchisi ijodiy jarayonidan qoniqish xosil qilib, oʻz gʻoyalarini yaxshiroq ifodalash uchun zarur hunarni xam egallaydi. Koʻpincha toʻgarak qatnashchilari ana shu hunarni oʻrganishga doir doimiy va sistemali mashgʻulotlarga qiziqadilar

Taʼlim jarayoni mahoratini uzluksiz oshirib borishga qaratilishi kerak albatta. Lekin bunga erishish uchun toʻgarak qatnashuvchilarda mashgʻulotlarga qiziqishni doimiy saqlab qolish kerak. Hisobga olinishi kerak boʻlgan ikkinchi oʻziga faktor toʻgarak qatnashchilarining yosh xususiyatlaridir.

Toʻgarakda kichik, oʻrta va katta bolalik davrida bilimlarni toʻplaganligi, koʻnikmalarni shakllanganligi, eng intensiv surʼatda amalga oshaganligi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon oʻrta umumtaʼlim maktabida tashkil qilingan toʻgarak mashgulotlarida poydevor qoʻyilganligiga ishonch hosil qilinishi lozim. Bu jarayonlarni yana bir marta mustaxkamlashga harakat qila boshlashimiz kerak. Eng muhimi shundakai, predmetlar dunyosi va bolliq hodisalarining aks etishi mantiqiy fikrlash uchun oʻquvchining miyasiga xos yuzaki mushoxadaning shubxasis, sodda formasida sodir boʻladi. Shunga koʻra yana bir bora xuddi ana shu qulay yoshda nusxasi koʻchiriladigan obʼektlarni maxsus tanlash, ustaxonani did bilan jixozlash va tarbiyaning puxta oʻylangan metodlari orqali bolaning miyasiga didni, tarbiyaga odatlinishini, goʻzallikka intilishini, atrofdagi didsizlik va xuniklikdan tugʻri taʼsirlanishni “oʻz-oʻzidan maʼlumdek” singdirish va oʻrnashtirish lozim.

To'garakda o'quvchida tabiiy o'sishning borishiga g'oyat ehtiyotkorlik bilan yondashish, tabiiy mayillarning namoyon bo'lishiga yordam berish va naqsh bilan shug'ullanishda no'rin tushinchalar vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Shunga ko'ra o'quvchilar bilan ishlashda material ularga tushinarli bo'lishi uchun nima qilish kerakligi masalasi birinchi o'ringa qo'yiladi.

To'garak mashg'ulotlari avvalo o'quvchilarning umumiy kamolotiga ya'ni ularda diqqat, kuzatuvchanlik, obrazli hamda fazoviy tafakkur, mehnatsevarlik, iroda va xakozalarning rivojlanishiga yordam berishi kerak. Lekin xar xolda bu mashg'ulotlarning asosiy vazifasi o'quvchilarda estetik badiiy didni tarkib toptirish, ulaning maxsus badiiy faoliyatiga qobiliyatlarini aniqlash va takomillashtirishdir. Pedagogik jihatdan to'g'ri, puxta o'ylab tashkil etilgan mashg'ulotlar to'garakka iloji boricha ko'proq o'quvchilarni jalb qilish imkonini beradi, bu esa kelgusida kasb tanlashning asosi bulib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni to'garak ishiga jalb qilish va ulardan mashg'ulotlarga ishtiyoq uyg'otishning birinchi va asosiy vositasi ustaxonani puxta o'ylab jozibali, ish vaziyatini yaratadigin va bir yo'la badiiy didning namunasi buladigan qilib jixozlashdir. Ustaxona qanchali chiroyli jixozlansa , o'quchilar to'garakka shunchalik ishtiyoq bilan qatnashadilar, o'zlari shug'illanayotgan sa'nat turiga shunchalik qiziqish bilan qaraydilar.

Ustaxonani jixozlashda to'garak eng yaxshi ishlaridan imkoni bo'lsa, xalq ustalarining asarlaridan foydalanish mumkin. Ustaxona ozoda va shinam bo'lishi undagi barcha asboblar o'z joyida turishi va ularni mashg'ulot boshlanishida starosta yoki navbatchi tarqatishi lozim. ana shunda bolalar darrov ijodiy muxitga kiradilar va rahbar oldindan tayyorgarlik ishlariga yoki tegishli intizom o'rnatishga vaqt sarflab o'tirmaydi.

To'garak mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli o'tkazishning ikkinchi muhim omili ta'lim jarayoning tashkil qilishdir. Tugarak ishlarini xar bir mashg'ulot puxta o'ylab va izchil ifodalangan, mahoratni egallash bosqichlari ko'rsatilgan plan bo'yicha olib borish kerak. To'garak rahbari shaxsining sifatlari xam muhim ro'l

o`ynaydi. Odatda u xurmat qozonadi, o`quvchi uning ko`rsatmalarini sidqidildan bajaradilar, unga taqlid qiladilar. Bularning hammasi ijodkorlikda alohida kasb etadi.

Rahbar to`garak qatnashchilari uchun ularning ijodini qadrlaydigan yagona shaxsdir. O`quvchilar o`z ijodlarining natijasiga rahbarning qiziqish bilan qarayotganini xis etsalar, uning ishonchini oqlashga tirishadilar. Rahbar topshiriqni qanday bajarish kerakligini ko`rsatadi va o`zi ham o`quvchilar bilan ishlaydi.

Rahbarning yaqqol namuna ko`rsatishi juda muhim bo`lib, bolalarning ishda malakalarini o`zlashtirishi jarayonini tezlashtiradi, ularning idrok etishini tegishli yo`nalishga soladi, rahbarning mavqeini oshiradi. Binobarin ko`p marta aytgandan bir marotaba ko`rsatish yaxshi.

To`garaklarda ishlash uchun mutaxasislarni-hunarmand, xalq ustalari va ijodiy faoliyatiga qobiliyatli kishilarni jalb qilish zarur. O`quvchilarni to`garakka qiziqtirishning navbatdagi muhim omili to`garak ishining aniq maqsadga qaratilishidir. To`garak qatnashchilari o`zlari bajarayotgan ishning nimaga mo`ljallanganini ya`ni undan o`quv xonasini, vestibulni, kabinetni, o`qituvchilar xonasini yoki zalni bezashda, ko`rgazma tashkil qilishda foydalanishini bilishlari kerak. To`garakdagi amaliy ishlarni muzeyga borish, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan tanishish, halq amaliy san`atining ana shu qadimiy turining tarixi bo`yicha lektsiyalar uyushtirish kabi tadbirlar bilan birga amalga oshirish mumkin.

Umumiy o`rta ta`lim maktablaridagi badiiy naqqoshlik to`garak mashg`ulotlarini yo`lga keltirish ijodiyotning ana shu turning spetsifikasini hisobga olishni taqozo etadi va shunga ko`ra qator nazariy, hamda amaliy masalalarni ishlab chiqish zaruriyati tug`iladi. Bulardan eng muhimlari: ijodiy va texnologik jarayonlar mahsuli sifatidagi badiiy naqqoshlik asarlarining spetsifikasi, atrof-muhit bilan bog`liqligi; hozirgi kasb-hunar kollejlarning moddiy-tashkiliy imkoniyatlari, nuqtai nazardan san`atning turi sifatidagi naqqoshlik, to`garak binolarini tashkil etishga talablar qo`yiladi.

Naqsh san`atini o`rganishda eng zarur tadbir -O`zbekiston dekorativ-amaliy san`atidagi badiiy ijodiyotning ana shu turi rivojlanishining tarixiy bosqichlari va qonuniyatlari bilan tanishishdir. Hususan tarixiy materiallar o`quvchilarda badiiy naqqoshlik spetsifikasi, uning ko`rgazmali muhitni tashkil etishdagi, kishilar hayotidagi roli, ya`ni nazariy estetik asoslari haqida to`g`ri tasavvur hosil qilish imkonini beradi. O`quvchilarni o`zbek naqshining uslubiy xususiyatlari bilan tanishtiradi, bir yo`la o`zbek halqining juda boy madaniyati, ajoyib an`analari bilan ham tanishtirish lozim. Qadimdan saqlanib qolgan mehnat qurollariga, maishiy buyumlarga qarab uzoq o`tmishdagi kishilarning hayoti to`g`risida hulosa chiqarish mumkin.

Hunarmand ustalar kishini lol qoldiradigan ajoyib naqsh kompozitsiyalarini yaratib, ana shu naqshlarda o`zlarining fikr va orzu-umidlarini ifodalab, ularni "odamga o`xshab gapirishga" majbur qilganlar. Qadimgi O`rta Osiyo madaniya ining vakillari Ibn Sino , Beruniy, Nosir Xisrav, Sulton Ali Mashhadiy, MirzoUlug`bek, Nizomiy, Alisher Navoiy, Jomiy, Umar Hayyom va boshqalar qadimgi amaliy san`at sohiblarining asarlarini, mahoratlarini halq naqshlarini arxetektura konstrutsiyasiga uyg`un bog`lay olganini madh etganlar.

Pedagogning vavzifasi – o`quvchilarga xalq ustalarining asarlarini ko`ra olish va tushinishni, san`atkorning poetik fikrlarini ilrok etishni o`rgatishdir. Buning uchun o`quvchi badiiy naqishning mohiyati nimalardan iboratligini, usta asarni qanday qilib yaratishini, bu san`atning qanaqa janrlari mavjudligi va hakozalarni bilish kerak. Dekorativ- amaliy san`atning bilishni pedogogik jihatdan muhimligi sababini quyidagilar bilan izohlash mumkin: san`atning ana shu turiga oid asarlar o`quvchilarda moddiy olamni idrok etishning estetik madaniyatini tarkib toptiradi, voqelikka estetik munosabatni shakllantiradi, ularga tasviriy san`atning boshqa turlariga xos badiiy ifoda vositalarini chuqurroq bilishda yordam beradi.

O`quvchilarda pisixologik kayfiyatni vujudga keltirish naqsh to`garaklaridagi ta`lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishning muhim omillaridir. Bunga tajribali naqqosh o`zining amaliy ishni namoyish etishi yoki o`tmishdagi

ustalarning asarlarini tahlil qilish orqali erishishi mumkin. Masalan, “islimi” yoki “girihi” naqshlarining qanday ishlanishini ko`rsatish yaxshi omilidir. O`quvchilar ustaning qo`l harakatlari natijasida naqsh elementlarini qo`shilib chizib borishga, ranglarni uyg`unlashuvini ko`rgan zahoti o`z ustalarining ishini takrorlashga harakat qiladi.

Yuqorida aytilgandek, naqqoshlik to`garagini tashkil etishda naqqoshlik san`atida yagona texnologiya mavjud emasligi bilan ham murakkablashadi. Har bir pedogog, rahbar yoki usta xalq naqshi elementlarini o`zining o`zbek naqshiga xos xususiyatlari to`g`risidagi ko`pincha noaniq tasavvurga asoslanib tushintiradi.

Hozirgi estetik tarbiya nazariyasi va praktikasidagi o`smirlarda ranglarni estetik his qilishning rivojlanishini o`rganishga alohida e`tibor beriladi. Bu masala o`quvchilarga badiiy ta`lim berish va ularni kamol toptirishning mazmuni hamda metodlarini yanada takomillashtirishda muhim bo`lim hisoblanadi. Ko`p yillik tajriba o`quvchilar ranglar nomini yaxshi o`zlashtirishlarni, rangni faqat asosiy xarakteristikasi bo`yicha ham farqlashni tez o`rganishlarni, kolorit va ranglar munosabatining ayrim masalalarini yaxshi tushintirishlarini ko`rsatadi.

Naqshda qandaydir element o`zining ma`naviy va kompozitsion ahamiyati bilan alohida o`rin tutsa, uning rangi maxsus ajralib turishi mumkin, bunday holda naqsh kompozitsiyasining kolorit yaxlitligi buzilmaydi. Bunday element ikkinchi darajali, qo`shimcha bo`lgan hollarda esa uni ajratadigan rang kompozitsiyadagi asosiy narsaning idrok etilishiga monelik qiladi, uning uyg`unligini buzadi, undan chiqib ketadi. Tusi qarama-qarshi ranglarni qo`shilishi eng uyg`un bo`ladi. Ammo bunday uyg`unlik har doim ham foydali bo`lavermaydi. Ayrim xollarda tusi qarama-qarshi ranglarning birikishi haddan tashqari keskinlikni vujudga keltiradi .

Mehnat hamda badiiy faoliyatning boshqa anchagina turlaridagi kabi naqqoshlikda ham malaka va mahoratni egallash tobora murakkablashib boradigan bosqichlarda amalga oshadi, o`quvchilarning ma`lum darajada umum ta`limiy va psixologik tayyorgarligini talab qiladi. Shuning uchun naqqoshlik to`garaklari

barqaror va muvaffaqiyatli ishlashida ulardagi o`quvchilarni to`g`ri guruhlash muhim ahamiyatga ega.

To`garakdagi o`quvchilarni baholash birinchidan, ta`limiy-ijodiy dasturning murakkabligi ortib borishini ta`minlashi, ikkinchidan esa bitta guruhdagi har bir o`quvchi bilan sinxron pedagogik ish borishi imkonini berishi kerak. Nihoyat, o`quvchilarni yoshiga qarab differentsiatsiyalash to`garak mashg`ulotlarida ular oldiga qo`yiladigan vazifalarning kasb-hunar kollejidagi majburiy o`quv predmetlarida o`zlashtirilgan bilim va malakalariga muvofiqligini taminlash lozim.

Albatta to`garak va majburiy ta`lim dasturlari o`zaro to`la muvofiq bo`lmaydi. To`garak ishini har bir guruhga faqat bir xil bosqich o`quvchilarini jamlagan holda tashkil etishni ta`minlash maqsadga muvofiq. Guruhlarni har bir bosqichga qarab differentsiatsiyalashda asosiy qoidani buzishga majbur etadigan yana boshqa sabab -o`quvchilarda badiiy iste`dod va qobiliyatlarning turli darajada rivojlangan bo`lib, xuddi shunga ko`ra badiiy ta`lim vazifalarini hal qilishda katta farqlarni kuzatish mumkin. Ana shularni nazarda tutib o`quvchilarni to`garakka qabul qilishdan oldin ularning qobiliyatlarini, tayyorgarlik darajasini aniqlash kerak.

Ma`lumki, dastlabki bosqichda ta`lim olayotgan o`quvchilarning ayrimlari keyingi keyingi bosqich kategoriyasidagi o`quvchilarga tavsiya etiladigan dastur bo`yicha badiiy ijodning har xil turlarini egallash uchun zarur imkoniyat va katta resurslarga ega bo`ladilar. O`quvchilarning badiiy tayyorgarligi va qobiliyati o`z guruhi uchun etarli darajada rivojlanmaganligiga asoslanib kichik gruppadagi mashg`ulotlarga jalb etish ham ma`qul emas. Shunday qilib, to`garak guruhlarning yosh tarkibini belgilaydigan ikkita asosiy omil mavjud: 1)to`garak guruhlariidagi mashg`ulotlar dasturining kasb-hunar kollejidagi majburiy ta`lim dasturlariga rasman muvofiqligi; 2) har bir o`quvchining mazkur guruxdagi mashg`ulotlarga umumiy va maxsus tayyorgarligining haqiqiy darajasi.

Bizningcha, turli davrlarda tabiiy o`shish va ta`lim –tarbiya jarayoni natijasida egallagan jismoniy va psixik imkoniyatlari to`g`risidagi ma`lumotlarni tahlil qilishda asosan quyidagi jihatlarni etiborga olish zarur: 1) o`quvchilardagi naqqoshlik ishlarining qandaydir bitta yoki bir nechta turlari bilan shug`illanishga jismoniy tayyorgarlikni; 2) bitta guruxdagi bir xil yoshli o`quvchilarning psixologik birlashuvini; 3) bir necha “yondosh” o`quv yillaridagi ta`lim dasturlarining o`z harakteri va yo`nalishlari bo`yicha, tasviriy san`at, fizika, kimyo, matematika, mehnat, adabiyot, tarix fanlarida o`rganiladigan masalalarni quyishning murakkabligi va chuqurligi darajasi bo`yicha o`zaro yaqinligini.

Ana shu uchta jihatning naqqoshlik to`garagida o`quvchilarni bosqichlarga bo`lib jalb qilish ahamiyatini ko`rib o`tamiz.

To`garak qatnashchilarni uchta guruxga ajratib qabul qilinadi.

Badiiy naqqoshlik to`garagi mashg`ulotlari dasturi quyidagi talablarni to`la qondiradi:

1. Umumiy o`rta ta`lim maktablari oldida turgan ta`lim-tarbiya vazifalariga javob beradi.

2. Mashg`ulotlar vazifalarning asta- sekin murakkablashuvini hisobga olib tashkil etiladi.

3. Mashg`ulotlar kerakli materiallar, asbob-uskunalar va bajarish texnikasi haqida to`la tasavvur hosil qiladi.

4. Naqqoshlik mashg`ulotlari o`quvchilarning badiiy didini va ijodiy qobiliyatini ruvojlantirishi, halq ijodiga va ustalariga qiziqish hamda muhabbat uyg`otishi kerak.

Dastur quyidagi printsiplar asosida tuziladi:

1. Naqqoshlikning spetsifikasini hisobga olish.



2. To`garak qatnashchilarining yosh hususiyatlarini va san`atning ana shu turiga qiziqishlarni hisobga olish.

3. Ta`limiy-ijodiy vazifaning asta sekin murakkablashuvi.

4. O`zbek halq naqqoshligining milliy an`analari.

Birinchi fazo – harakatning ayrim elementlarini o`rganish va qator aloxida detallarni bitta butun qilib birlashtirish. To`garak rahbari ana shu bosqichda cho`tkani qo`lda qanday tutish kerakligini, to`g`ri chiziq va egri chiziqlar qanday chizilishini ko`rsatadi. Bu ish avval bolaga bir muncha qiyinchilik tug`diradi; uning qo`llari va barmoqlari o`ziga yaxshi itoat etmaydi, bu hol ayniqsa qog`ozga emas, balki boshqa materallarga ishlashda ko`proq yuz beradi. To`garak qatnashchilari cho`tkani ikkita barmoq bilan ushlab faqat jimjiloqqa tayanish o`rniga ko`pincha uni peroli ruchka singari ushlaydilar.

Qo`lni ishlatishda quyidagi qoidalarni bilib olish zarur. Stol yonida tirsak va ko`krak bilan tayanmay erkin o`tirish, gavdani stoldan muayyan oraliqda tutish lozim. Mo`yqalamni ikkita barmoq - bosh va ko`rsatkich barmoqlar bilan ushlab, ishga faqat jimjimoloqni tirab turish kerak; bordi-yu bu qiyinlik qilsa, mushtabeldan foydalanish mumkin.

### **2.3-§ O`tkazilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni va uning natijalarini tahlili**

Bitiruv malakaviy ishning mavzusidan kelib chiqqan holda biz umumiy o`rta ta`lim maktablarida Tasviriy san`at fanidan majburiy ta`limning kompetentlik yondashuviga asoslangan davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi asosidagi taqvim-mavzuli rejani o`rganib chiqdik. **(1-ilova)**

Ushbu tuzilgan dasturning samaradorligi va uni amalda qo`llash imkoniyatini aniqlash hamda o`z vaqtida (to`liq) o`quvchilar tomonidan

o`zlashtirilishi darajasini aniqlash maqsadida tajriba tadqiqotlarini o`tkazishni rejalashtirdik.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun biz quyidagicha ishlarni amalga oshirdik:

- Tajribaning umumiy rejasini tuzdik.
- Tajriba o`tkazish uchun o`quvchilarning mustaqil ishlari uchun materiallar tanladik.
- O`quvchilar ko`nikma bilimlarini aniqlash va tajriba-tadqiqotlari o`tkazish uchun sharoit yaratish.
- Tajriba natijalarini baholadik.

Biz tajriba ishimizni boshlashdan oldin bitiruv malakaviy ish mavzusini yoritib beruvchi ilmiy – uslubiy adabiyotlarni tahlil qilib chiqdik.

Tasviriy san`at mashg`ulotlarida amaliy bezak san`ati mashg`ulotlarini tashkil qilishni rejalashtirdik. Tanlangan mavzu asosida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari va o`quvchilarga tasviriy san`at darslarida naqsh kompozitsiyasini tuzish va uni rangda ishlashga o`rgatish orqali tasviriy bilim, ko`nikma va malakalarni egallaganlik darajasini aniqlash ustida ish olib bordik.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun Urganch shahridagi 6-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabida tajriba sinov ishlari olib borildi. Bunda ikkitadan sinf tanlanib, tasviriy san`at darslaridagi amaliy va mustaqil ishlar yuklamasi oldindan ishlab chiqilgan me`yor bo`yicha berildi. Tajribada jami 40 tadan ziyod o`quvchilar qatnashdi.

Dars konspektlari tayyorlandi. O`quvchilarining tasviriy san`at darslaridagi amaliy ishlar yuklamasining hajmi aniqlandi.

Tajriba tadqiqotlari olishni rejalashtirishda biz Nizomiy nomidagi Pedagogika universiteti va Urganch davlat universitetining Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasida professor o`qituvchilari tomonidan chiqarilgan darsliklar va o`quv qo`llanmalaridan foydalandik.

Pedagogik tadqiqotlarni o`tkazishda biz o`z oldimizga asosiy vazifalardan biri sifatida amaliy san`at bo`yicha mustaqil amaliy ish topshiriqlarini tuzish va amaliy topshiriqlarni bajarish uchun sarflanadigan vaqt miqdorini hamda o`quvchilarda tasviriy san`at darslarida naqsh kompozitsiyasi tuzish orqali o`quvchilarning ijodiy tasavvurini oshirish imkoniyatlarini o`rganish, hamda tasviriy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishni maqsad qilib qo`ydik. Shu bilan birga naqsh kompozitsiyasi tuzish va ishlashga o`rgatish orqali o`quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish vazifalarini o`z oldimizga maqsad qilib qo`ydik.

O`quvchilarning egallagan bilim va ko`nikmalari darajalari maxsus ishlab chiqilgan mezonlar orqali aniqlandi.

Ta`limning yangi vazifalarini qo`yishda o`quvchilar uchun o`quv materialidagi yangicha qiziqarli topshiriqlari batafsil aniqlab olindi. Ta`lim vazifalarini belgilash bilan bir vaqtning nassoshlik san`atidan namuma ishlash mashg`ulotlarida o`quvchilar bajaradigan mustaqil amaliy ishlar uchun tayyorlangan topshiriqlarning taxminiy ro`yxati tayyorlandi. **(2-ilova).**

Tajriba uchun uslubiy materiallarni tayyorlashda ta`lim maqsadlarini belgilash va mustaqil topshiriq variantlarini tuzishdan tashqari ko`rgazmali qurollar tayyorlandi, **(3-ilova).**

Zarur bo`lgan hamma metodik materiallar oldindan tayyorlab qo`yildi. Tajriba sinflarida ta`limning aniq maqsadlari ishlab chiqilib, uni amalga oshirish imkoniyati o`quvchilarda ular egallashi zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalari haqida to`liq tasavvur hosil qilindi.

Topshiriqni bajarish jarayonida o`quvchilar o`z qiziqish va bilimlarini namoyish qilish imkoniyati mavjudligidan unga to`la hajmda, original echim topishga harakat qildilar.

Amaliy va mustaqil ish to`plamlari bo`yicha tajribali o`qitishning o`ziga xos xususiyati uning o`quvchilar o`quv va grafik faoliyatining asoslanishi, ularga

tasviriy san'at fanining mazmuni va ta'limning aniq maqsadlarini bayon qilinishi bilan belgilanadi.

Tayyorlangan mustaqil ish to'plamlarini o'ziga xos xususiyati unda ishlab chiqilgan va taklif qilinayotgan yangiliklarning hammasi o'quvchilarning tasviriy san'at fanidan egallagan bilim va ko'nikmalariga asoslangan.

Tajribaviy o'qitishda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni egallash jarayoni odatdagi usulda bordi. Har bir mashg'ulot davomida o'quvchilarning individual ishlari o'qituvchi tomonidan tekshirilib, yo'l qo'yilgan kamchiliklari ko'rsatib borildi. Amaliy tadqiqot jarayonida ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga doir olingan ma'lumotlar ijobiy ko'rsatgichni ko'rsatdi.

Olingan natijalarni tahlil qilishga o'tamiz.

#### 1. Topshiriqni tahlil qilish.

Tajriba-sinov o'qishlarining muhim natijasi bo'lib, o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Tajriba-sinov o'qishlari davrida o'quvchilarga beriladigan mustaqil ish topshiriqlari oddiydan murakkablashib borish tartibida tuzildi. Tajriba-sinovda qatnashgan umumta'lim maktabi o'quvchilari mustaqil ishlarni katta qiziqish bilan bajardilar.

Shunday qilib, tasviriy san'at bo'yicha amaliy ish topshiriqlarini o'quv jarayoniga kiritish o'qish natijalarining sezilarli ortishiga va yaxshi natijalarga olib keldi. Bunda tasviriy san'at kursini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati katta. Shuningdek kursni o'rganish jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyati, xususan ijobiy tomonga o'zgardi.

O'quvchilar naqsh kompozitsiyasi ustida ishlash jarayoniga katta qiziqish bilan qarab, amaliy ish topshiriqlarini juda yaxshi bajardilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, birinchidan, tasviriy san'atdan amaliy ish topshiriqlari bo'yicha tajriba-sinov o'qitishlari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi va o'quvchilarga mustaqil

topshiriqlarni bajarish jarayonida ochib berilishi ularda tartibli, tugal bilimlarining shakllanishga, ularning bilim, malaka va ko`nikmalarini rivojlanishiga katta yordam beradi.

(1-ilova)

**Tasviriy san'at fanidan majburiy ta'limning kompetentlik  
yondashuviga asoslangan davlat ta'lim standarti  
va o'quv dasturi asosida taqvim-mavzuli reja**

<b>Dars</b>	<b>Mavzu va vazifalar</b>	<b>Soat</b>	<b>Amalga oshirish usuli</b>
<b>2-sinf 1-chorak</b>			
1.	Yo'lsimon naqsh ishlash	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi,
<b>2-chorak</b>			
2.	Ro'mol uchun naqsh ishlash	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi, Tahlil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
<b>4-chorak</b>			
3	Amaliy bezak san'ati	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi, Tahlil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
4	Kvadrat naqsh ishlash	2	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi, Tahlil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,

<b>3- sinf 1-chorak</b>			
5	“Yo’lsimon naqsh” ishlash	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko‘rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish kompetensiyasi,
6	“To‘rt burchak naqsh” ishlash. Nazorat isni -1	2	Naturaning xarakterli jihatlarini ko‘rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish kompetensiyasi,
<b>3-chorak</b>			
7	Me‘moriy naqsh ishlash	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko‘rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish kompetensiyasi,
<b>4-chorak</b>			
8	Doiraviy naqsh ishlash	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko‘rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish kompetensiyasi,
9	Kulolchilik. Loydan lagan yasash	2	Naturaning xarakterli jihatlarini ko‘rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish kompetensiyasi,
<b>4-sinf 1-chorak</b>			
10	To‘g‘rito‘rtburchak shaklidagi sxema va elementlar asosida naqsh ishlash	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko‘rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish kompetensiyasi,
11	To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi naqsh namunasidan ko‘chirish	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko‘rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm)

	Nazorat isni -1		bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi,Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
<b>2-chorak</b>			
12	Doira naqsh namunasidan ko'chirish	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi,Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi,Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
<b>3- chorak</b>			
13	Patnis uchun naqsh ishlash.	2	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi,Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi,Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
<b>6- sinf 1-chorak</b>			
14	Sharq miniatyura san'ati tarixi haqida suhbat hamda reproduksiyalarni tahlil etish	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi,Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi,Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
15	Sharq miniatyura san'ati asarlari namunalarining elementlari (daraxt, suv, tog', tosh, hayvonlar, qushlar, odamlar va hokazo)dan nus'ha ko'chirish	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi,Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi,Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
16	O'zbek xalq ertaklari syujetlari asosida miniatyura usulida illyustratsiya ishlash	2	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi,Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi,Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
17	Sharq mumtoz adabiyoti syujetlari asosida miniatyura usulida mustaqil kompozitsiya ishlash	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi,Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi,Tahil qilish va o'zini-o'zi

	Nazorat isni –2		nazorat qilish kompetensiyasi,
18	Miniatyura ishlash uchun turli hajm va ko'rinishda ish qutilar tayyorlash.	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
19	Ish qutini bezash uchun kompozitsiya eskizini ishlash	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
<b>7-sinf 2-chorak</b>			
20	O'zbekiston amaliy bezak san'ati haqida suhbat hamda uning namunalarini badiiy idrok etish.	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
21	Amaliy bezak san'ati elementlarini tabiiy tasvirlarni stilizatsiyalash vositasida chizish.	2	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
22	Amaliy bezak san'atining biror turiga (kursi uchun naqsh, so'zana uchun naqsh, quticha uchun naqsh va hokazo) badiiy bezak ishlash.	2	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
23	Ixtiyoriy tarzda turli shakldagi (kvadrat, doira ichida, yo'lsimon) naqsh ishlash. Nazorat isni-2	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasi,
24	Naqsh namunasidan namuna ko'chirish.	1	Naturaning xarakterli jihatlarini ko'rish, tahlil qilish va amaliy ishda ifodalash kompetensiyasi, Amaliy ishni (tasvir, rasm) bosqichli ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi, Tahil qilish va o'zini-o'zi



**Amaliy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilar bajaradigan mustaqil amaliy ishlar uchun tayyorlangan topshiriqlarning taxminiy ro'yxati (2-ilova).**

Yo'lsimon naqsh ishlash

Kvadrat naqsh ishlash

Aylana naqsh ishlash

Patnis uchun naqsh ishlash

Oshxona buyumlari uchun naqsh ishlash

So'zana uchun naqsh ishlash

Quticha uchun naqsh ishlash

Ro'mol uchun naqsh ishlash

**Ko'rgazmali qurollar (3-ilova).**

Naqsh turlari aks etgan plakat.

Xalq amaliy bezak sanati namunalari aks etgan plakat.

Naqqoshlik san'atining rivojlanishi va taraqqiy etishi. (videorolik)

Sovg'a buyumlarini bezash texnologiyasi. (taqdimot)

**Sinf-7**

**MAVZU: «O'zbekistonning amaliy bezak san'ati haqida suhbat hamda uning namunalarini badiiy idrok etish»**

**Dars maqsadi:** 1. Amaliy bezak san'ati turlari O'zbekistonning qaysi hududida qadimdan rivojlanganligi, O'zbekistonning amaliy bezak san'ati muzeyidagi eksponatlar va amaliy bezak san'ati ustalari (mashhur ustalari)

ustaxonasida ustaning ish jarayoni, ish yo'nalishini idrok etish qobiliyatlarini oshirish.

2. Amaliy bezak san'ati ustalari ishlarini xalq kundalik turmushida qo'llanilishi haqida tushuncha berish.

**Dars uslubi:** Savol-javob, suqbat, o'qituvchi bayoni, klaster, guruqlarda ishlash.

**Dars bosqichlari:**

- Tashkiliy qism - 2 daqiqa
- Kirish - 2 daqiqa
- Guruqlarda ishlash - 20 daqiqa
- O'qituvchi bayoni - 0 daqiqa
- Taqlil qilish (rag'batlantirish)-9 daqiqa
- Dars yakuni va uyga topshiriq-2 daqiqa

**Kerakli jihozlar:**

Amaliy bezak san'ati turlaridan namunalar, O'zbekiston amaliy bezak san'ati muzeyidagi eksponatlar reproduksiyalari, amaliy bezak san'ati ustalari (mashqur ustalari) ustaxonasida ustaning ish jarayoni, ish yo'nalishini ko'rsatib berilgan foto suratlar, amaliy bezak san'ati ustalari ishlarining xalq kundalik turmushida qo'llanilishi tasvirlari tushirilgan foto suratlar.

**Darsning borishi:** O'zbekiston amaliy bezak san'atiga ta'rif.

Amaliy san'at - eng ommaviy, eng xalqchil, eng qayotiy ijod ifodasi. Insodagi go'zallikka bo'lgan tabiiy keng intilish go'zallik qonunlari asosida yaratilgan bunyodkorlikning yaqqol namunasidir. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muqitning nafislashtirishga, estetik boyitishga hizmat qiladi.

Ibtidoiy qayot davrida odamzotning madaniyatga bo'lgan ilk qadami amaliy san'atdan boshlangan desak xato bo'lmaydi. qadimiyatning har qadamida turmush, ro'zg'or taqozosi bilan turli buyumlar yaratilgan. Bu buyumlar foydalanishga qulay va bejirim qilib tayyorlanishiga harakat qilingan. Meqnat qurollari, idish va buyumlar shaklu-shamoyili bilan har jihatdan qulay va bejirim bo'lgan, qolaversa

ularga naqsh, tasvir tushirilib, o'yib bezatilgan. Asrlar mobaynida shu tarzda xalq ijodi sifatida shakllana borib, amaliy san'at tarahiy topgan. Bobokolonlarimiz qayot yo'lini, go'zallikka bo'lgan intilishlarini o'tmishdan saqlanib qolgan ana shunday moddiy madaniyat yodgorliklari orqali o'rganib boramiz. Amaliy san'at qadimdan mavjud bo'lgan xalq ijodining muhim sohalaridan biridir. Uning tarixi badiiy hunarmandchilik, badiiy san'at, rassomlar va xalq ustalari faoliyati bilan bog'liq.

O'zbek xalq amaliy san'atining tarixiy ildizlari juda qadimgi, baquvvat, asriy tajribalari serunum va serjilo, har jihatdan qayratga munosib.

Madaniy merosimiz – maqobatli me'moriy obidalar, noyob zeb-ziynatlar, hilma-hil ro'zg'or anjomlari hozirda xalq mulki sifatida atroflicha o'rganilib, ko'pchilikka ma'lum va manzur bo'lmoqda. Buxoro va Samarqand me'moriy yodgorliklari, zardo'zi buyumlari, Marg'ilon atlaslari, Shahrisabz kulollik buyumlari, Xiva gilamlari va boshqa amaliy san'atning turlari yillar davomida taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

Izoh: Amaliy san'atga ta'rif berilayotganda Buxoro va Samarqand me'moriy yodgorliklari, zardo'zi buyumlari, Marg'ilon atlaslari, Shahrisabz buyumlari, Xiva gilamlari, Chust do'ppilari va boshqa amaliy san'atning turi namunalari va foto tasvir ko'rinishlari ko'rsatib boriladi.

Amaliy bezak san'ati turlari:

a) Me'morlik – Samarqand, Buxoro, Xiva va O'zbekistonning boshqa shaharlarida ham qadimdan rivojlangan.

b) Ganchkorlik – Samarqand, Buxoro, Xiva va O'zbekistonning boshqa shaharlaridagi me'morlik obidalari bezatilgan.

v) Naqqoshlik – Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg'ona va O'zbekistonning boshqa shaharlaridagi me'morlik obidalari bezatilgan.

g) Yoqoch o'ymakorligi – Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg'ona va O'zbekistonning boshqa shaharlaridagi me'morlik obidalari bezatilgan.

d) Sangtaroshlik – Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg’ona va O’zbekistonning boshqa shaqarlaridagi me'morlik obidalari bezatilgan marmardan buyumlar yasalgan.

e) Kulolchilik – Shahrisabz, Rishton va O’zbekistonning boshqa shaharlarida rivojlangan.

yo) Kandakorlik – Xiva, qo’qon, Buxoro, Samarqand va O’zbekistonning boshqa shaqarlarida rivojlangan.

j) Zardo’zlik – Buxoro, Samarqand va O’zbekistonning boshqa shaharlarida rivojlangan.

z) Zargarlik – Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farqona va O’zbekistonning boshqa shaharlarida qadimdan rivojlangan.

i) Pichoqchilik – Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg’ona, Chust, qorasuv pichoqlari qadimdan rivojlangan.

y) Kashtachilik – Urgut palaklari, qashqadaryo, Surxondaryo so’zanalari qadimdan mashqur bo’lgan.

k) Gilamchilik – Andijon, Xiva, qarshi, Urgut, Nurota va boshqa joylarda gilam to’qishning turli usullari qadimdan rivojlangan.

l) Misgarlik – Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farqona va O’zbekistonning boshqa shaqarlarida qadimdan rivojlangan.

m) Savatchilik - Farqona, Buxoro va O’zbekistonning boshqa shaharlarida to’qilgan savat turlari qadimdan rivojlangan.

n) Temirchilik – Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farqona va O’zbekistonning boshqa shaqarlarida qadimdan rivojlangan.

O’zbekiston amaliy san’at muzeyidagi eksponatlari foto, surat va reproduksiya ko’rsatib boriladi va ular haqida tushuncha beriladi.

qar bir amaliy san’at bezagi turlariga bittadan eksponat foto tasvirdan foydalanib ularga ta’rif beriladi.

Amaliy bezak san'ati ustalari (mashqur ustalari) ustaxonasida ustaning ish jarayoni tasvirlangan foto lavqalar ko'rsatiladi va ish yo'nalishi tushintirib boriladi.

Masalan: Kulolning ish jarayoni; Ustaxonasining ko'rinishi va ustaning asar ustida ish olib borish bosqichlari tushirilgan fotolar ko'rsatiladi va tushuncha beriladi.

Amaliy bezak san'ati ustalari ishlarining xalq kundalik turmushida qo'llanilishi va ularning savdo-sotiq ishlari foto tasvirlari ko'rsatiladi va tushincha beriladi.

a) Me'morlik – Koshinli uylar, machitlar, jamoat binolari ko'rinishlari va ta'rifi.

b) Ganchkorlik – Ganch o'yib ishlangan ayvonlar.

v) Naqqoshlik – Naqsh bilan bezatilgan devorlar, xonadon ko'rinishlari.

g) Yog'och o'ymakorligi – Yog'ochdan o'yib ishlangan eshiklar, ustunlar, xontaxta va kursilar.

d) Sangtaroshlik – Marmardan o'yib yasalgan buyumlar va marmarga o'yib ishlangan naqshlar bilan bezatilgan me'moriy obidalar.

e) Kulolchilik – Sopol idishlar; Ko'za, choynak, piyola, kosa, laganlarning kundalik qayotda ishlatilishi.

yo) Kandakorlik, Misgarlik – Mis idishlar, eshik va darvoza, zanjir, zulfin va tutqichlarga o'yib naqsh tushirilgan ko'rinishlar.

j) Zardo'zlik – Keyimlarning milliy libosi; Zardo'zi xalat, nimcha, kovush kiygan qolati.

z) Zargarlik – Zeb – ziynat va taqinchoqlar taqqan kelinning ko'rinishi.

i) Pichoqchilik – Turli xil pichoqlarning ishlatilish jarayoni.

y) Kashtachilik – Kashta, so'zana, palaklar bilan bezatilgan xona.

k) Gilamchilik – Turli xil gilamlarni xonadonlarda to'shalgan, osib qo'yilgan ko'rinishlari va to'qish jarayoni ko'rsatilgan foto surat.

l) Misgarlik – misdan ishlangan turli idishlar va misga o'yib ishlangan tasvir va naqshlar.

m) Savatchilik – Nonlar terib qo'yilgan, mevalar solingan, gullarni dastalab bezatilgan savatlar ko'rinishlari.

n) Temirchilik – Bino tomlari, tarnovlarda ishlatiladigan, temirdan yasalgan bezaklar ko'rinishlari.

Amaliy bezak san'ati buyumlarining bozor rastalaridagi savdolari ko'rinishlari tasviri.

Masalan: Zardo'zlik–Milliy kiyimlar; To'nlar, xalatlari, do'ppilar, kovushlarning rastalardagi va savdo–sotiq jarayonidagi ko'rinishlari. Kulolchilik, Kandakorlik, Misgarlik, Pichoqchilik – idishlarning savdo-sotiq jarayoni.

Gilamchilik, Kashtachilik – rastalarda ilingan holatlari va savdo jarayonlari tasviri.

Amaliy bezak san'atiga ixtisoslashgan maktablar, bolalar ijodiy uylaridagi to'garaklar ish jarayoni va o'quvchilar ish ustidagi ko'rinishlaridan lavhalar, namunalar va foto tasvirlar ko'rsatib o'tiladi va tushincha berib boriladi.

**O'qituvchi:** “Aqliy hujum” usulidan foydalanib o'quvchilarga Amaliy bezak san'atiga oid savollar beradi. Savollar aytib o'tilgan Amaliy bezak san'ati turlari va ularning xalq kundalik turmushida foydalanilishi, ustalar tomonidan yasash usullari daqida tuziladi.

O'quvchilarning javoblari umumlashtiriladi va taqtil qilinadi. Savollarga to'liq javob bergan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

**Uyga vazifa:** har bir o'quvchiga Amaliy bezak turlari, Amaliy bezak san'ati turlari reproduksiyasi beriladi va uning mazmunini yozma ravishda ijodiy talqin etib kelish topshiriladi.

**Eslatma:** O'qituvchi ushbu darsda qo'llagan foto tasvir reproduksiyalarni albom tarzida Amaliy bezak san'ati turlarini ketma-ket jamlagan bo'lsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

## Krossvord 1

1. “Oliy e’tiqod” mazmunini bildiruvchi rang?
2. “Yomon ko’zdan asrash” mazmunini bildiruvchi belgi?
3. “Xushro’ylik” ramzini bildiruvchi qush?
4. Musaffolik, tozalik, yorug’lik va baxtramzini bildiruvchi rang?
5. “g’oliblik” ramzini bildiruvchi rang?
6. Ona tabiatni, ifoda etuvchi rang?
7. “Muxabbat” belgisi
8. Ayyorlik, makkorlik ramzi?
9. Moviy osmon, tinchlik ramzini bildiruvchi rang?

		1		N					
2				A					
3				Q					
			4	Q					
		5		O					
			6	Sh					
			7	L					
8				I					
		9		K					

### Javoblari :

1. Zangori, 2. Qalampir (shakli), 3. Boyqush (rasm), 4. Oq, 5. Olov (ramzi).  
6. Yashil, 7. Olma (shakli), 8. Tulki (rasm), 9. Ko`k (havo rang).

### Test savollari

#### 1. Qanday naqsh turlarini bilasiz?

- a) madoxili, namoyon, sirtmoq.
  - b) shobarg, oygul, mehrob.
- \*v) islimiy, girix, ramziy. gulligirix,

g) pargori, shobarg, bofta.

## **2. Madoxili qanday ma'noni anglatadi?**

a) navo naqshi.

b) xandasaviy naqsh.

v) doira shaklidagi naqsh.

\*g) lolasimon naqsh turi.

## **3. Stilizatsiya so`zining ta'rifi qaysi qatorda to`g`ri keltirilgan?**

a) naqshga shakl beruvchi chiziq.

b) nomutanosiblik, marom va nisbiylik qonunlari asosida kompozitsiyasi tuzish.

\*v) tabiatdagi o`simlik va xayvonot olamini soddalashtirib, ramziy qiyoslab chizilgan tasviri.

g) naqsh elementlarining takrorlanishi.

## **4. Namoyon naqshi ta'rifi qaysi banda to`g`ri keltirilgan?**

a) geometrik (xandasaviy) naqsh. islamiy, xandasaviy,

b) doira shaklidagi naqsh va gulligirix turlari mavjud.

v) xoshiya naqshi. mustaqil naqsh.

\*g) «Ko`rinish, manzara» demakdir.

## **5. Bodomguli qanday naqshga kiradi?**

a) turunj naqshining takrorlanishidan xosil bo`lgan sodda naqsh turi.

b) namoyon sodda islamiy naqsh turi.

v) girix naqshi.

\*g) bodom shakli takrorlanishidan xosil bo`lgan sodda islamiy naqsh turi.



## **6. Shobarg nima?**

- a) novda va tanoblarni bog'lovchi naqsh elementi.
- \*b) islamiy naqsh elementibo`lib, barglar ichida eng kattasi.
- v) geometrik naqsh.
- g) yelimli bo`yoq turi.

## **7. Shukufta nima.?**

- a) novda va tanoblarni bog'lovchi naqsh elementi.
- b) barg elementi.
- v) bargli gul elementi.
- g) geometrik naqsh elementi.

## **8.Tanob nima?**

- a) naqsh kompozitsiyasining tuzilishi.
- b) naqshning ramziy ma'nolar nomi.
- \*v) naqsh kompozitsiyasining asosiy yo`l chizig'i.
- g) shkufta elementining o`zgacha nomi.

## **9.Bofta nima?**

- a) geometrik naqsh.
- \*b) to`qilgan shakldagi islamiy naqsh elementi.
- v) navo naqshi.
- g) rangtusi

## **10.Bodomguli qanday naqshga kiradi?**

- a) turunj naqshi.
- b) namoyon naqshi.

v) girix naqshi.

\*g)bodomshakli takrorlanishidan hosilbo`lgan islamiy naqsh turi.

### Krossvordlar № 2

1. Kim naqshlar chizadi?
2. .... Usmonov Toshkent naqqoshlik maktabining namoyondalaridan biri.
3. Naqqoshlik markazlaridan birining nomi.
4. Loydan idish-tovoqlar, o`yinchoqlar yasovchi usta .... debataladi.
5. Farg`ona naqsh maktabining mashhur ustalaridan biri – usta .... Haydarovdir.
6. .... musulmonlik ramzi hisoblanadi
7. Amaliy bezak san`ati turlaridan birining nomini toping.
8. Kashtachilik san`ati janrlaridan biri.
9. To`kin, sochinlik, to`qchilikramzi.
10. Xiva naqqoshlik maktabining namoyondalaridan biri usta ... Polvonovdir.
11. Ayyorlik va makkorlik ramzi.

		<b>1</b>	<b>A</b>					
<b>2</b>			<b>M</b>					
<b>3</b>			<b>A</b>					
	<b>4</b>		<b>L</b>					
<b>5</b>			<b>I</b>					
		<b>6</b>	<b>Y</b>					
	<b>7</b>		<b>S</b>					
<b>8</b>			<b>A</b>					
		<b>9</b>	<b>N</b>					
	<b>10</b>		<b>A</b>					
		<b>11</b>	<b>T</b>					

JAVOBLAR: 1. Naqqosh, 2. Maxmud, 3. Xiva, 4. Kulol, 5. Qodirjon, 6. Oy,

7. Kashta, 8. So`zana. 9. Anor, 10. Ota. 11. Tulki.

Xalq amaliy san`ati turlari haqida ma`lumot bering?

## **Xulosa va metodik tavsiyalar**

Biz yashab turgan o'zbek tuprog'idagi har bir me'moriy yodgorlik buyuk bir asar, nodir qo'lyozmalar, xalq amaliy san'ati namunalari bir vaqtlar o'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolat beradi, chunonchi ota bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik, kulolchilik san'ati bezaklari ularning rang –barangligi geometrik va o'simliksimon naqshlar kompozitsion tasviri zavq olishga, ular orqali o'z orzu umidlarini, muxabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos tomonlari, haqiqiy o'zbekcha nomlari, ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari unutilib ketish arafasida. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklari va boshqa amaliy san'at turlarini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrdagi eng muhim muammolardan biridir.

Madaniy meros va yuksak badiiylik ilmiy an'anani rivojlantirishga, undan foydalansh, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa yoshlardan xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga dahldor etish maqsadga muvofiqdir, shu sababli ana shu amaliy san'atning turlarini yosh avlodga o'rgatishni tashkil qilish, ularni estetik ruhda tarbiyalash, go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan baxra olishga izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini ko'paytirish, kasb tanlash ko'nikma va dunyoqarashini shakllantirishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan o'zbek amaliy bezak san'ati turlaridan naqqoshlik san'atini yoshlarga chuqurroq o'rgatish imkoniyatlarini izlab topishga erishish kerak.

Ana shu fikr va mulohazalarni e'tiborga olib bitiruv malakaviy ishi ustidagi nazariy va amaliy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar va tavsiyalar berildi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga O'zbekiston naqqoshlik maktabi va uning namoyondalarining ijodini o'rgatishda o'qitishning

interfaol va ko'rgazmalilik metodlaridan foydalanishning ahamiyati ochib berildi.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini xalq amaliy bezak san'atidan amaliy bilimlarini oshirishda to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish va bu mashg'ulotlarda xalq ustalarining ijodi bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarni ilovada keltirilgan mavzularni yanada chuqurroq o'zlashtirishlarida turli tanlov va sinfdan tashqari ishlar olib boish lozim.
4. Bitiruv-malakaviy ishida naqqoshlik san'atida yog'ochdan yasalgan sovg'a buyumlarni bezash bosqichlari va qonuniyatlari o'rganib chiqildi va uni umumta'lim maktablari tasviriy san'at o'qituvchilari uchun kerakli material sifatida tavsiya qilishimiz mumkin.

Men kelgusi ish faoliyatim davomida o'zbek amaliy bezak san'ati turlaridan olgan bilimlarimni yanada boyitishda izlanishlarni davom qildirib naqqoshlik san'ati mashgulotlarining samaradorligin oshirishda ilmiy asoslangan dasturlar tuzish, o'quv metodik ko'rgazmalar tayyorlash, tanlovlar o'tkazish, mahalliy materiallardan foydalanish, o'quv xonalarini zamonaviy jihozlashga harakat qilmoqchiman. Shu bilan birga naqqoshlik san'atidan ijodiy faoliyatimni davom qildirib, yangi-yangi uslubdagi san'at asarlarini va yangi –yangi usuldagi naqsh bezaklarini yaratmoqchiman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997. 44 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. Rasmiy nashr. Toshkent «Adolat» 2017.
3. Халқ бадий хунармандчилик ва амалий санъатини янада ривожлантиришни давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлар

тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони,-Т.;«Тошкент оқшоми» газетаси.2 апрель, 1997, 38 – сон.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent- «O'zbekiston» - 2016

6. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqiiz bilan birga quramiz. Toshkent «O'zbekiston» 2017.

7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi.Toshkent «O'zbekiston» 2017.–48 b.

8. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent «O'zbekiston» 2017.

9. Ахроров И. Ремпель Л.И. Резной штук Афрасиаба--Т.;Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма. 1971

10. Ahmedov M. B. Yog'och o'ymakorligi. –Т: Iqtisod-moliya, 2007.

11. Azimov. «O'zbekiston naqshi nigorlari». Т: G'.G'ulom nomidagi adabiyoti va san'ati nashriyoti. 1987

12. Aruxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. 1987

13. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –Т: Cho'lpon, 1999.

14. Булатова В.А., Ноткин И.И. Архитектурные памятники Хивы. Изд. «Узбекистан». Т. 1965.

15. Боситхонов З. Хандасий нақш (гирих)ларнинг ечимлари. –Т.:«Очик Жамият Институти Кўмак Жамфармасининг Ўзбек Ваколатхонаси», 2002

16. Булатов С.С. Ашурова М.О. Амалий санъат қисқача луғати– Т.; Қомуслар бош тахририяти. 1992

17. Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати-- Т.;«Мехнат», 1991

18. Булатов С.С. Соипова М.С. Мансуров У.Н. Рамзлар: тасвир ва мазмун.-Т.: —Фан ва технология», 2015, 71 бет.

19. G`ulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T: «Bilim», 2004.
20. G`ulomov K. M. Amaliy san`at - T: Iqtisod – moliya, 2007.
21. G`ulomov S. S, Bulatov S. S. «Sharqona usta shogird odobi» O`zR.OO`MTV o`quv adabiyotlari, jurnal va byuletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000.
22. Egamov.X. Bo`yoqlar bilan ishlash –T: O`qituvchi, 1981
23. Hasanov.R.Boshlang`ich sinflarda naqsh chizish metodikasi.T:O`qituvchi, 1972.
24. Mirzahmedov M.K.Boshlang`ich naqsh ishlash metodikasi-T:O`qituvchi, 1976.
25. Манакова В.Н. Ўзбек хонадонининг бадий безаш маданияти-Т.;ў.Гулом номидаги «Адабиёт ва санъат» нашриёти, 1989
26. Мирзаахмедов М.Материалларга бадий ишлов бериш-Т:«Ўқитувчи» 1986.
- 27.Милуков С.И. Как научит резьбу по дереву М.1984у.
- 28.Маньковская А.Л, и Булатова В.А. Памятники зодчества Хорезма. Т.Изд. лит. Искусство имени Г. Гуляма, 1978.
- 29.Морозова А.С. Хивинский узор. Т. Госуд. Изд. Худ. лит. Уз.Р. 1957.г.
30. Nabiyev M. Rangshunoslik. – T: O`qituvchi, 1995.
31. Ноткин И.И. Тош-хаули. Изд. «Узбекистан». Т. 1968.
32. Нильсен В.А., Манакова В.Н. O`zbekiston yodgorliklarining me`moriy bezagi Leningrad. Stroyizdat. Leningrad bo`limi. 1974.
- 33.Пугаченкова Г.А.Зодчество Центральной Азии. XV век-Т.;Изд. литературы и искусства им. Гафура Гуляма. 1976
34. Пугаченкова Г.А, Ремпел Л.И.Выдающейся памятники архитектуры Узбекистана Т.1958 г.
35. Ремпель Л.И. Архитектурные орнамент Узбекистана Т.Гос.Изд.Худ. лит. 1961.
36. Резба и роспис по ганчу и дереву Т.1962 г.
37. Ремпел Л.И. Далекое и близкое Т,1981 г.
38. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. – T: Iqtisod – moliya, 2007.
39. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. – T: Iqtisod – moliya, 2007.
40. Қосимов Қ.Қ. Наққошлик - Т.; «Ўқитувчи» 1990

41. Zohidov. P. Sh. Farg`ona naqshi. (xalq ustasi Saidahmad Norqo`ziyev albomidan). T: O`z. Adabiy nashriyoti. 1960
42. Xiva albomi. T. «O`zbekiston». 1994. Faxriddinova D. A. Декоративно-прикладное искусства Узбекистана Т. 1972 г.
43. Хворостов А.С. Инкрустация. Резба по дереву М.1985г.

**Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti**  
**“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavriat yo`nalishi**  
**bitiruvchisi Qodirova Maqsuda Ravshanbekovnaning “Sovg’a buyumlarini**  
**badiiy bezash texnologiyasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**T A Q R I Z**

**Malakaviy ish mavzusi:** “Sovg’a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi”

**Malakaviy ishning hajmi** 13876 so‘zdan iborat

- a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 70 sahifadan iborat.
- b) ilovalar soni: 3 ta.

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi:** unda xalq amaliy bezak san’atini o`rganish orqali sovg’a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi ishlab chiqiladi, shu bilan birga amaliy bezak san’ati mashg`ulotlarida o`quvchilarini mustaqil ravishda sovg’a buyumlarini badiiy bezashga o`rgatish usullari ham tadqiq etiladi. Bitiruv malakaviy sovg’a buyumlarini badiiy bezash jarayonida o`quvchilarni ijodkorlikka yo`naltirishning imkoniyatlari o`rganib chiqiladi va u amaliyotga tatbiq etiladi.

Mavzuga oid ilmiy, pedagogik, ma`naviy – marifiy manbalar tahlil qilingan. Bitiruv malakaviy ishda berilgan topshiriqlar mavzuga mos.

**Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati:** Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati, bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi, manbalar va adabiyotlar tahliliga to`xtalib o`tilgan. Ilova qilingan materiallarning tarkibi quyidagicha:

Bitiruv malakaviy ishda 3 ta ilova qilingan.

1. Amaliy san’ati asarlaridan namunalar. Mavzu mazmunini ochib beruvchi ilovalar.
2. “Sovg’a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi” mavzuli elektron versiya.
3. “Sovg’a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi” mavzusida ishlangan sovg’a buyumlari mavjud. Ularning bajarilish sifati juda yaxshi.

**Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi:** Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda M.B. Ahmedov Yog`och o`ymakorligi. (T:Iqtisod-moliya,2007), Bulatov S.S. Soipova M.S, U.N.Mansurovlarning Ramzlar: tasvir va mazmun.(T.: Fan va texnologiya, 2015), K.G`ulomovning Ashyolarga badiiy ishlov berish. (T: «Bilim», 2004), B.Q. Xolmatovning Kompozitsiya. (T:Iqtisod–molya,2007) va Naqqoshlik. (T:Iqtisod – molya,2007) kabi adabiyotlaridan keng foydalanilgan. Shu bilan birga [www.distancelearning.ru](http://www.distancelearning.ru), [www.edu.uz](http://www.edu.uz), [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz), [www.nbgf.intal.uz](http://www.nbgf.intal.uz) kabi INTERNET manbalaridan ham foydalangan.



komponentlari, savodxonlik darajasini aniqlash mezonlari yaratildi.

Bitiruv malakaviy ishning o'z oldiga qo'ygan vazifalaridan kelib chiqqan muammoning mohiyati va uning natijasida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar umumta'lim maktablari pedagoglari, jumladan, tasviriy san'at to'garak rahbarlariga o'quvchilarda amaliy san'at bo'yicha ijodiy faoliyatni shakllantirish jarayonida qo'l keladi. Tayyorlangan metodik tavsiyalar umumta'lim maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarining faoliyatini yanada takomillashtirishga, tasviriy san'at mashg'ulotlarida naqqoshlik san'ati asosida o'quvchilarning ijodkorligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

M.Qodirova tomonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ishi unga qo'yiladigan talablarga javob beradi va men uni "ZiyoNET" axborot-ta'lim resurslari tarmog'ida joylashtirish uchun tavsiya qilaman.

**Taqrizchi:** Xiva pedagogika kolleji tasviriy san'at o'quvchisi Matnazarov O.

2019 yil « 24 » may



**“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavriat yo`nalishi**  
**bitiruvchisi Qadirova Maqsuda Ravshanbekovnaning “Sovg’a buyumlarini**  
**badiiy bezash texnologiyasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy**  
**rahbari katta o`qituvchi N.E. Ibadullayeva tomonidan berilgan**

**TAQRIZ**

M.Qadirovaning bitiruv malakaviy ishi “Sovg’a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi” mavzusida tasdiqlangan.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 70 sahifani tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishda 3 ta ilova bo`lib ularda amaliy san’ati asarlaridan namunalar. Mavzu mazmunini ochib beruvchi ilovalar, “Sovg’a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi” mavzuli elektron versiya, “Sovg’a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi” mavzusida ishlangan sovg’a buyumlari mavjud. Ularning bajarilish sifati juda yaxshi.

Bitiruv malakaviy ishi ikki: nazariy va amaliy qismlardan iborat. Nazariy qism kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan tashkil topgan. Amaliy qismda ishning mazmunini ochib beruvchi ilovalar va kartina ishlangan.

Bitiruv-malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi shundaki, unda xalq amaliy bezak san’atini o`rganish orqali sovg’a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi ishlab chiqiladi, shu bilan birga amaliy bezak san’ati mashg`ulotlarida o`quvchilarini mustaqil ravishda sovg’a buyumlarini badiiy bezashga o`rgatish usullari ham tadqiq etiladi. Bitiruv malakaviy sovg’a buyumlarini badiiy bezash jarayonida o`quvchilarni ijodkorlikka yo`naltirishning imkoniyatlari o`rganib chiqiladi va u amaliyotga tatbiq etiladi.

“Sovg’a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi” mavzusida amaliy san’at nazariyasi o`rganib chiqiladi. O`quvchilarning amaliy san’at, xususan naqqoshlik bo`yicha ijodiy faoliyatini shakllantirishning ilmiy asoslangan va tajribada sinab ko`rilgan mazmuni (pedagogik tizim va tasviriy faoliyatning boshqa turlari bo`yicha) va metodikasi, o`quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish bo`yicha nazariy va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi, tasviriy savodxonlikning

komponentlari, savodxonlik darajasini aniqlash mezonlari yaratildi.

Bitiruv malakaviy ishning o'z oldiga qo'ygan vazifalaridan kelib chiqqan muammoning mohiyati va uning natijasida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar umumta'lim maktablari pedagoglari, jumladan, tasviriy san'at to'garak rahbarlariga o'quvchilarda amaliy san'at bo'yicha ijodiy faoliyatni shakllantirish jarayonida qo'l keladi. Tayyorlangan metodik tavsiyalar umumta'lim maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarining faoliyatini yanada takomillashtirishga, tasviriy san'at mashg'ulotlarida naqqoshlik san'ati asosida o'quvchilarning ijodkorligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

“Sovg'a buyumlarini badiiy bezash texnologiyasi” mavzusida amaliy san'at nazariyasi o'rganib chiqiladi. Amaliy san'atning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish jarayonini o'quvchilarda estetik did, estetik ong, badiiy tasavvur va tafakkurni tarkib toptirish, hamda rivojlantirishga yo'naltirish orqali ma'naviy barkamol avlod tarbiyasini shakllantirishga zamin yaratadi;

Bu mavzuning nazariy va amaliy qismida amaliy san'at tarixini mukammal o'rganish, bilimlarni yanada kengaytirish mumkin. Tasviriy san'at turlaridan naqqoshlik san'atiga ta'lluqli bo'lgan yangi ma'lumotlar to'plash va amaliy san'at sohasiga oid bo'lgan barcha nazariy bilimlarga ega bo'lish, ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llash mavzuning ijobiy tomonlarini belgilaydi.

Shu yo'nalishda o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlar, chop etilgan o'quv-metodik adabiyotlar o'rganib chiqilgan va ishning dolzarbligi asoslab berilgan.

Talaba bitiruv malakaviy ishiga va mavzuga qo'yilgan barcha talablarni to'liq bajarishga erishgan deb hisoblayman va uni “ZiyoNET” axborot-ta'lim resurslari tarmog'ida joylashtirish uchun tavsiya qilaman.

**Bitiruv malakaviy ish rahbari:**

2019 yil «22» may

